

O'qituvchi nimani o'ylaydi?

Har Mustaqillik bayrami arafasida o'zgacha kayfiyatni his qilaman. Chunki men mustaqillik farzandiman. Kasbimga e'tibor kuchayayotgani, ta'lim sohasi yuqori pog'onalarga ko'tarilayotgani barcha xalq ta'limi xodimlari kabi meni ham xushnud etmoqda. Ustozlarni ulug'lagan yurtning mustaqilligi abadiy bo'lsin.

4-bet

Maktablar reytingi ma'lum bo'ldi

O'qituvchilarga o'z ishiga qanday munosabatda ekanligini bilish uchun berilgan "Agar yana bir bor tanlash imkoniyati berilsa, o'qituvchi bo'larmidingiz?" degan savolga 10 foizi "O'qituvchi bo'lmasdim", deb javob bergan.

6-bet

"Xotiram siniqlari" da hurriyat sog'inchi



11-bet

Kuch — bilim va tafakkurda

Marifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2019-yil 31-avgust, shanba № 68 (9237)

Xalq ziyolilari gazetasi



O'qituvchi ham har doim o'qishi zarur

7-bet

Jonajon O'zbekistonim, mangu bo'l omon!



XALQIMIZNING QAT'IIY INTILISHI VA ULKAN BUNYODKORLIK SALOHİYATI RAMZI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 30-avgust kuni Toshkent shahrida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi.

Yangi yirik sanoat inshootlari, tub iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar O'zbekistonning dovdug'ini oshirmoqda. Xususan, Toshkent shahrida so'nggi yillarda yangi-yangi inshootlar, korxonalar, tibbiyot va ta'lim muassasalari, sport majmualari, ravon yo'llar, ko'priklar, mahalla guzarlari, bozorlar, bog'lar, xiyobonlar qurilib, foydalanishga topshirildi. Mustaqilligimizning 28 yillik bayrami arafasida ham bir necha shunday bino-inshootlar, madaniy-maishiy muassasalar ishga tushirildi.

Davlatimiz rahbari dastlab Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabining rekonstruksiya qilingan yangi binosini borib ko'rdi.

Ta'kidlash joiz, mazkur bilim yurti raqs san'ati bo'yicha mutaxassislar tayyorlash borasida mam-

lakatimizdagi yetakchi oliy ta'lim muassasasi hisoblanadi.

Oliy maktab tarkibida ixtisoslashgan maktab-internat, xoreografiya kolleji faoliyat ko'rsatadi. Oliy maktab bitiruvchilariga bakalavr va magistr darajasidagi mutaxassislik diplomlari beriladi. Xoreografiya jamoalari rahbari, xoreograf-pedagog, xoreograf-san'atshunos mutaxassislar tayyorlanadi.

Bugungi kunda mazkur bilim maskanini bitirgan yuzlab mutaxassislar mamlakatimizdagi ijodiy birlashmalar, konsert tashkilotlari, teatr jamoalari, professional ansambllar, bolalar musiqa va san'at maktablarida samarali faoliyat yuritmoqda.

Oliy maktab bilan AQSh, Germaniya, Fransiya, Italiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Rossiya, Qozog'iston

va boshqa mamlakatlarning xoreografiya markazlari o'rtasida keng hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Bu yerda bilim olayotgan yoshlar ko'plab xorijiy davlatlarda o'tkazilayotgan nufuzli xalqaro tanlovlar, festivallarda muvaffaqiyatli ishtirok etib kelmoqda.

Ushbu muassasa uzoq yillar eski binoda faoliyat yuritib keldi.

Davlatimiz rahbarining 2018-yil 3-fevraldagi tegishli qaroriga asosan, Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabiga alohida bino ajratilib, zamonaviy rekonstruksiya qilindi. Bu ishlarga 15 milliard so'mdan ortiq mablag' sarflandi.

Katta balet zali, 2 ma'ruzalar zali, 16 xoreografiya va balet zali, 7 musiqa, 8 auditoriya, 2 kompyuter texnologiyasi xonasi, axborot-resurs markazi, kutubxonada talabalar uchun barcha sharoit yaratilgan. Bundan tashqari, 300 o'rinni yotoqxona, 100 o'rinni oshxona faoliyat ko'rsatmoqda.

(Davomi 2-betda.)

Iqbol MIRZO,
O'zbekiston xalq shoiri

Vatan, seni shunaqa sevaman!

Sevaman deb aytolmayman yor-jonimga,
Garchi usiz ko'zlarimga dunyo qorong'u.
Aytolmayman onajonim-mehribonimga,
Garchi menga jonidan jon uzib bergan u!

Aytolmayman otamga ham farzandlik mehrim,
Hislarimni socholmayman jigarlarimga.
Meni so'zsiz tushunadi yigit bo'lsa kim,
Men bu so'zni yashirganman yurak-bag'rimga.

Ko'zim tushsa, nigohimni ko'tarar tog'lar,
Yo'llarimga kelinchakdek suvlar separ soy.
Sinfdoshdan anov sambit va qizg'aldoqlar
Sevaman deb aytishimni kutar hoynahoy.

Sevaman deb aytilmaydi, isbot etilar,
Qarashlarda, kurashlarda ko'rinadi u.
Sadoqatda, jasoratda, jangda aks etar,
So'zda emas, ko'zda yashar bu aziz tuyg'u.

Vatan, senda ota-onam, muhabbatim jam,
Faqat sening quchog'ingda toparman orom.
Jon ne kerak onam uchun fido qilmasam,
Vatan, seni men shunaqa sevaman. Tamom!

Bizni internetda ham kuzating!

www.marifat.uz
[/marifat.uz](https://www.facebook.com/marifat.uz)
[@marifatziyo](https://www.instagram.com/marifatziyo)

XALQIMIZNING QAT'IY INTILISHI VA ULKAN BUNYODKORLIK SALOHİYATI RAMZI

(Davomi. Boshi 1-betda.)

— Xorijiy davlatlarda shu kabi san'at maskanlarini ko'rganimda biz ham shunday joylarda mashg'ulot o'tkazarmikanmiz, deb orzu qilardim, — deydi murabbiy Yelena Nodirova. — Bugun orzumizga yetdik. Bundan, ayniqsa, talabalar xursand. Sababi mashg'ulotlar o'tadigan eski zalimiz talabga javob bermay qolgan. Natijada jarohat olish holatlari uchrab turardi. Hozirgi zalimiz keng va yorug'. Eng zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan. Bizga shunday sharoit yaratib berilganidan minnatdormiz.

Shavkat Mirziyoyev bu yerdagi sharoit, muhit va yutuqlarni mamlakatimizning boshqa joylarida ham tatbiq etish, hududlarda maktab filiallarini ochish, "ustoz-shogird" an'anasini mustahkamlash zarurligini ta'kidladi.

Davlatimiz rahbari bilim yurtining o'qituvchi va murabbiylari bilan suhbatlashdi. Milliy san'atimizga e'tibor, bu sohada yangi ta'lim maskanlari qurish va ustozlar mehnatini rag'batlantirish ishlarini izchil davom ettirish lozimligi qayd etildi. "Bahor" raqs ansambli qayta tiklanayotgani soha vakillariga katta quvonch bag'ishladi.

Oliy maktab ijodkorlari uchun dam olish maskani tashkil etish va avtobus ajratish bo'yicha topshiriq berildi.

Eng ulug', eng aziz bayramimiz arafasida Toshkentda yana bir yirik majmua — "Navro'z" bog'i foydalanishga topshirildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev mazkur bog'da yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan amalga oshirilgan "Navro'z" bog'i Toshkentning Abdulla Qodiriy, Labzak, Nurafshon va Sharof Rashidov ko'chalari kesishgan joyda barpo etildi.

Ta'kidlash joizki, "Navro'z" bog'i ushbu bayram nishonlana-

digan birorta mamlakatda yo'q. Shu jihatdan Navro'z qadriyatlarini mohiyatini anglashga qaratilgan bog' buniyod etilishi xalqimiz ma'naviy hayotidagi katta voqea bo'ldi.

Davlatimiz rahbari o'tgan yili fevral oyida bu yerda bo'lib, bog'ning mazmun-mohiyatini boyitish bo'yicha tavsiyalar bergan edi. Shu asosda qad rostlagan istirohat bog'ida xalqimiz madaniyati, milliy qadriyatlarini chuqur ifodasini topgan. 2,5 gektar maydonni egallagan etnografik shaharchada Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlar nomlari bilan ataladigan ko'chalar va qadimiy uslubda uylar buniyod etilib, har bir hududning o'ziga xos an'analari, hunarmandchiligi, turmush tarzi aks ettirilgan.

Bog'ga kelgan kishi astronomik maktab, dehqonchilik madaniyati, rizq-ro'z beradigan ona zaminni sevisha qaratilgan qadriyatlar, hayot boqiyiligini anglatuvchi tushunchalar yurtimizda ming yillar avval paydo bo'lganini his etadi. Bu yerdagi sayilgohlarda yetilgan ramzlar, qurilmalarda samoviy timsollar ishlatilgan, hudud landshafti kishining bahridilini ochadi.

Bog'ga ikki olam — koinot va yerning bir-biriga bog'liqligini ifodalovchi ramziy shakldagi darvozadan kiriladi. To'g'rida favoralari Navro'z amfiteatri joylashgan. Yon tomonda hayot davomiyliги timsoli — diametri 72 metrli charxpalak qurilgan. Anhor kanali ustidan o'tuvchi 88 metrli ko'priklardan oluvchilarga o'ziga xos sayr qilish imkoniyatini yaratadi.

— O'zlikni anglash nuqtayi nazaridan bu joyning ahamiyati katta. Bu yerda milliy qadriyatlarimiz, tariximiz yaqqol ko'rinadi. O'z tarixini chuqur bilgan xalq g'ururli, qudratli bo'ladi, — dedi Prezidentimiz.

Davlatimiz rahbari etnografik shaharchani ko'zdan kechirdi.

Har bir hududning o'ziga xos qadimiy madaniyati, hunarmandlik, pazandalik an'analari, folklori, etnografiyasi bu yerga keluvchilar uchun madaniy hordiq bilan birga, beqiyos tarixiy manba bo'lib xizmat qilishi qayd etildi. Olimlar, ijodkorlar, mahalla oqsoqollari bilan suhbatda bog' faqat Navro'z kunlari emas, yil davomida gavjum bo'lishi, bu yerga kelganlar madaniy hordiq chiqarishi bilan birga, ma'naviy ozuqa ham olishi kerakligi ta'kidlandi.

— Navro'z shunchaki udum yoki marosim emas, u xalqimizning tarixi. Bu bayram mohiyatida o'tmishimiz, bugunimiz, kelajagimiz mujassam, — deydi O'z RFA Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi direktori, "Do'stlik" ordeni sohibi Jabbor Eshonqulov. — Prezidentimiz ziyolilar bilan uchrashuvda bu bog' xalqimizning o'tmishi bilan birga ertangi kunga intilishlarini ham ifoda etishi zarurligini ta'kidladi. Bu yerga keladigan yurtodoshlarimiz va xorijlik sayyohlar bog'da tariximizga taalluqli ashyolar va urf-odatlar bilan tanishib, xalqimiz qanday boy xalq ekanini bilishi zarur. "Navro'z" bog'i shu jihatdan tariximiz va madaniyatimizning ko'zgusi bo'ladi.

Dam olish maskanida ikkinchi bosqichda yopiq akvapark, Navro'z bayrami tantanalarini o'tkazishga mo'ljallangan 3 ming o'rinni amfiteatr, ikkita avtoturargoh barpo etilishi mo'ljallangan. Kelasi yil Mustaqillik bayramiga foydalanishga topshiriladigan ushbu inshootlar "Navro'z" bog'ini yanada so'lim go'shaga aylantiradi.

Prezidentimiz Yunusobod tumanidagi Mirzo Ulug'bek nomidagi fizika, matematika, informatika va astronomiya fanlariga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabida yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi.

Ushbu maktab davlatimiz rah-

barining 2017-yil 14-sentabrda "Mirzo Ulug'bek nomidagi ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktab-internatini va "Astronomiya va aeronavtika" bog'ini tashkil etish to'g'risida"gi qarori asosida barpo etilgan.

2019-2020-o'quv yilida maktab-internatning 7-, 9-, 10-sinflariga 128 nafar o'quvchi maxsus tanlov asosida qabul qilindi. Bu yerda o'quvchilarning zamonaviy bilim olishi uchun barcha sharoit yaratilgan. Yotoqxona, amfiteatr, sport zali va maydonchasi, oshxona, shuningdek, robototexnika, yosh fizik, matematik, astronomlar va informatiklar to'garaklari o'quvchilar ixtiyorida.

Ta'lim sifatini oshirish, darslarni xalqaro andozalar asosida tashkil etish maqsadida chet ellik pedagoglar jalb etilgan. Ular uchun maktab hovlisining o'zida maxsus mehmonxona qurilgan.

Maktab-internatda fakultativ dars sifatida aerokosmik texnologiyalar xonasi tashkil etilgan. Unda fanlar bo'yicha laboratoriya ishlarini virtual tarzda o'rganish, darslik va badiiy adabiyotlardan foydalanishga mo'ljallangan "VR BOX", "HOLOMAX", "QBOX" zamonaviy uskunalar, elektron doska, Mendeleyev davriy jadvalining elektron shakli o'rnatilgan. Maktab binosining tom qismida joylashgan teleskop o'quvchilarning osmon jismlarini o'rganishi va kuzatishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlatimiz rahbari maktabning yangi binosida yaratilgan sharoitlar, o'quv xonalarini ko'zdan kechirdi. O'quvchilar bilan suhbatlashdi.

— Bu maktabni Mirzo Ulug'bek nomi bilan ataganimiz bejiz emas. Bundan faxrlanishimiz, buyuk bobomizga munosib bo'lishimiz kerak. Buning uchun juda katta intilish, qunt, mehnat zarur. Vatanimizga kerakli, yetuk mutaxassislar bo'lib yetishi-

shingiz uchun hamma sharoitni yaratib beramiz, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Dars va dam olish vaqtlarini to'g'ri taqsimlash, zamonaviy metodikalarni qo'llab, bolalarning fanlarni yaxshi o'zlashtirishiga imkoniyat yaratish bo'yicha tavsiyalar berildi.

Shavkat Mirziyoyev shundan so'ng Tashkent Cityga kelib, kongress-xoll va besh yulduzli mehmonxona, hududdagi obodonlashtirish ishlarini ko'zdan kechirdi.

Kongress-xoll binosi ikki qavatdan iborat bo'lib, uning markazida katta va kichik zallarga transformatsiya bo'ladigan 4 ming o'rinni kull mavjud. Bundan tashqari, bir vaqtning o'zida 8 ta delegatsiyani qabul qilish imkoniyatiga ega qo'shimcha zallar ham bor.

21 qavatli besh yulduzli mehmonxonaning qurilishi ham jadal davom etmoqda. "Hilton" brendi ostida faoliyat yuritadigan bu otelda 258 ta xona bo'ladi. Shuningdek, 3 ta restoran, banketlar zali hamda 6 ta majlislar zali mavjud.

Bugungi kunda kongress-xoll va mehmonxona qad ko'tarib bo'lgan. Ichki pardoqlash, elektr tarmoqlari tortish, dekorativ panellarni montaj qilish ishlari yakunlanmoqda. Muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini o'rnatish va obodonlashtirish ishlari olib borilmoqda.

Prezidentimiz majmuada amalga oshirilgan buniyodkorlik ishlarini yuqori baholab, bu obyektlar ishga tushirilgach, xizmat turlarini ko'paytirishga e'tibor qaratish, xalqimizning bu yerga kelib mazmunli dam olishi uchun qulayliklar yaratish yuzasidan ko'rsatmalar berdi.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Matnazar ELMURODOV,
Umar ASROROV,
O'ZA muxbirlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori

YOSHLARNI ILM-FAN SOHASIGA JALB ETISH VA ULARNING TASHABBUSLARINI QO'LLAB-QUVVATLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA

So'nggi yillarda respublikada ilmiy va innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash, kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda, iqtidorli yoshlarni nufuzli milliy hamda xalqaro olimpiadalar, musobaqalar va tanlovlarda salmoqli natijalarga erishishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yoshlarning ijodiy, intellektual va tadbirkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish, innovatsion g'oyalari, loyihalari va texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish, iqtidorli talabalar, yosh olimlar va

tadbirkorlarning innovatsion faoliyatini rag'batlantirish, ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Shu bilan birga, yosh iqtidor sohiblarini innovatsion tadbirkorlik sohasiga tizimli jalb qilish bo'yicha olib borilayotgan ishlar samaradorligini oshirish, shu jumladan:

iqtidorli yoshlarni ishbilarmonlar va yetakchi olimlar bilan hamkorlikda ish yuritishi uchun yagona tizim yaratish va shu asosda ilm-fan sohasida yosh kadrlar yetishtirish tizimining uzviyligini ta'minlash;

ishlab chiqarish sohasiga yuqori texnologiyalarni tatbiq etish va ilmiy tadqiqotlarga yoshlarni jalb etish hamda ilmiy-texnik va innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun platformalar yaratish talab etilmoqda.

Iqtidorli yoshlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni yanada jonlantirish, mamlakat ilm-fanining xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshligini ta'minlash, mavjud ilmiy maktablar salohiyatini yanada mustahkamlash hamda ularning innovatsion salohiyatini rivojlantirish maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi, Fanlar akademiyasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda O'zbekiston yoshlar ittifoqining:

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzurida Yoshlar akademiyasini (keyingi o'rinlarda — Yoshlar akademiyasi) yuridik shaxs maqomisiz tashkil etish;

Yoshlar akademiyasiga rahbarlikni O'zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirining birinchi o'rinbosariga yuklash;

(Davomi 3-betda.)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori

YOSHLARNI ILM-FAN SOHASIGA JALB ETISH VA ULARNING TASHABBUSLARINI QO'LLAB- QUVVATLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA

(Davomi. Boshi 2-betda.)

Yoshlar akademiyasiga o'zlarining innovatsion loyihalari va g'oyalari ega iqtidorli yoshlar va talabalar, 40 yoshgacha bo'lgan olimlar va tadbirkorlardan tashkil topgan jamoalarni tanlov asosida qabul qilish to'g'risidagi taklifga rozilik berilsin.

Belgilansinki, Yoshlar akademiyasining jamoalari a'zolari Yoshlar akademiyasi a'zolari hisoblanadi.

2. Yoshlar akademiyasining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, ilmiy-tadqiqot va ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda yoshlarning ijodiy, intellektual va tadbirkorlik salohiyatini oshirish;

iqtidorli va tashabbuskor yoshlar bo'yicha yagona ma'lumotlar bazasini shakllantirish va muntazam yangilab borish hamda ularning mamlakatning yetakchi olimlari va ishlabarmonlari bilan hamkorligini ta'minlash;

ilmiy-tadqiqotlarni bajarish ishtiyoqiga ega iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, amaliy va innovatsion tadqiqotlarni olib borishlariga imkon yaratish, yangi avlod yosh olimlarini tayyorlash bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish;

yosh olimlar tomonidan aniq vazifalarni hal etishga, ichki va tashqi bozorlarda talab yuqori bo'lgan ilg'or texnologik ishlanmalarni ishlab chiqishga qulay sharoitlar yaratish;

ilmiy-innovatsion akselerator va biznes-inkubatorlarni tashkil etish asosida tashabbuskor yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirish;

yoshlarning startap loyihalarini xo'jalik boshqaruvi organlari va davlat ulushi mavjud korxonalarni izchil rivojlantirish bo'yicha zamon talablariga javob beradigan, tijoratlashtirish darajasi yuqori bo'lgan mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqarishga yo'naltirish;

iqtidorli yoshlarning rivojlangan xorijiy mamlakatlarning nufuzli ilmiy markazlari, universitetlari, texnoparklari va ishlab chiqarish korxonalari malaka oshirishlariga ko'maklashish;

xalqaro va mahalliy darajada e'tirof etilgan tashkilotlar, universitetlar, ilmiy markazlar bilan yaqindan aloqalar o'rnatish, ularning olimlari va mutaxassislari ishtirokida mahorat darslari, treninglar, shuningdek, dolzarb ilmiy-innovatsion yo'nalishlar bo'yicha konferensiyalar, seminarlar va tanlovlar o'tkazish.

3. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Iqtidorli yoshlar bilan ishlash boshqarmasi tugatilsin va uning 5 ta shtat birligi amaldagi moliyalashtirish tartibi saqlab qolingan holda O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi tizimiga o'tkazilsin.

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining markaziy apparati tuzilmasida vazirlikka o'tkazilayotgan shtat birliklari hisobidan Iqtidorli yoshlar bilan ishlash boshqarmasi tashkil etilsin va u Yoshlar akademiyasining ishchi organi etib belgilansin.

4. Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Yoshlar akademiyasining tashkiliy tuzilmasi 1-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Yoshlar akademiyasining Vasiylik kengashi tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzurida Yoshlar akademiyasining iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash Jamg'armasi (keyingi o'rinlarda — Jamg'arma) yuridik shaxs maqomisiz tashkil etilsin.

6. O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, ustav fondida (kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar, shuningdek, ustav fondining (kapitalining) 50 foizi va undan ortiq iqtidorli davlat ulushi yuqori bo'lgan korxonalarga tegishli yuridik shaxslarning innovatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlash jamg'armalari jami mablag'larining yiliga 10 foiz miqdoridagi mablag'larini har yili Jamg'armaga o'tkazish to'g'risidagi taklifga rozilik berilsin.

7. Quyidagilar Jamg'arma mablag'larini shakllantirish manbalari etib belgilansin:

mazkur qarorning 6-bandida ko'rsatib o'tilgan mablag'lar;

Innovatsion rivojlanish va novatorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi Kuzatuv kengashining qaroriga asosan yo'naltirilayotgan mablag'lar qismi;

Yoshlar akademiyasi Vasiylik kengashi a'zolari — xo'jalik boshqaruvi organlari, davlat ulushi mavjud korxonalar va boshqa tashkilotlar, shuningdek, yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalari;

Yoshlar akademiyasi a'zolari tomonidan innovatsion, amaliy va startap loyihalar natijalari asosida tayyorlangan innovatsion mahsulotlarni tijoratlashtirishdan olinadigan daromadlarning bir qismi;

xalqaro moliyaviy institutlar, donorlarning grantlari va kreditlari;

Jamg'armaning vaqtincha bo'sh turgan mablag'larini tijorat banklari depozit hisoblariga joylashtirishdan tushadigan daromadlar;

Yoshlar akademiyasiga birlashtirilgan bino va inshootlarni ijaraga berishdan olingan tushumlar;

tashkilotlar bilan tuzilgan shartnomalar doirasida olingan daromadlar;

qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar.

8. Jamg'arma mablag'lari quyidagilarga yo'naltirilishi mumkinligi belgilab qo'yilsin:

innovatsion, amaliy va startap loyihalarini moliyalashtirishga, shu jumladan, ilmiy-innovatsion akselerator va biznes-inkubatorlarni tashkil etishga, ilg'or texnologik ishlanmalarni ishlab chiqishga;

Yoshlar akademiyasi faoliyatini tashkil etish, xorijiy va mahalliy yetakchi olimlar, mutaxassislar hamda vatandoshlarni belgilangan tartibda jalb qilishga;

iqtidorli yoshlarni rivojlangan davlatlarning nufuzli ilmiy markazlari, universitetlari, texnoparklari va ishlab chiqarish korxonalarida malaka oshirishlariga, nufuzli ilmiy nashrlarda maqolalarni chop etish, shuningdek, xorijiy va mahalliy patentlash xarajatlarini qoplashga;

ilmiy-amaliy tadbirlar (simpozium, konferensiya, seminar, trening, davra suhbatlari, master-klasslar va boshqalar) tashkil etish hamda xalqaro ilmiy-amaliy tadbirlarda qatnashishga;

Yoshlar akademiyasining mazkur qarorda belgilangan asosiy vazifalarini ro'yobga chiqarishga.

9. Belgilab qo'yilsinki:

Jamg'arma tomonidan Yoshlar akademiyasi faoliyati bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirish Vasiylik kengashining qaroriga asosan amalga oshiriladi;

Yoshlar akademiyasi a'zolarining loyihalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi "Yoshlar — kelajagimiz" Davlat dasturi to'g'risida"gi PF-5466-son Farmoni asosida ajratilgan mablag'lar doirasida o'rnatilgan tartibda moliyalashtiriladi;

Yoshlar akademiyasi a'zolarining malakasini oshirish va ularni xorijiy stajirovkalarga yuborish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga huzuridagi Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha "El-yurt umidi" jamg'armasi dasturlari doirasida buyurtmaga asosan amalga oshiriladi;

davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida bajariladigan yosh olimlar ilmiy-texnik loyihalari Yoshlar akademiyasi a'zolari tomonidan amalga oshiriladi.

10. Iqtidorli yoshlarni O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi "Yoshlar akademiyasi" faoliyatiga 2019-2020-yillarda jalb etish bo'yicha "Yo'l xarita"si 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

O'zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vaziri I.Y.Abduraxmonov tasdiqlanayotgan "Yo'l xarita"sida nazarda tutilgan chora-tadbirlarni o'z vaqtida, to'liq va sifatli bajarishga shaxsan mas'ul etib belgilansin.

11. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi Yoshlar akademiyasi a'zolarining ilmiy-ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish, qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish maqsadida 2020-yilning 1-apreliga qadar quyidagi platformalarni tashkil etsin:

"G'oyalar generatorlari" — Yoshlar akademiyasining asosiy yo'nalishlariga tegishli bo'lgan ma'lum bir muammoning yechimiga qaratilgan innovatsion g'oyaga ega jamoalar platformasi;

"Startaplar" — o'z g'oyasi va ushbu g'oyani amalga oshirishga qaratilgan startap loyihalari va ularni amalga oshirish bo'yicha aniq reja ega jamoalar platformasi;

"Biznes vakillari" — faoliyatida ilmfan va innovatsiya yutuqlarini qo'llagan va tegishli sohada kamida 1 yillik tajribaga ega bo'lgan jamoalar platformasi;

"Bo'lajak akademiklar" — yuqoridagi platformalarda faol ishtirok etgan, mamlakatning ilm-fan rivojlanishiga katta hissa qo'shayotgan yuqori ilmiy salohiyatga ega olimlar platformasi.

**O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti**

Toshkent shahri,
2019-yil 30-avgust

Belgilansinki, Yoshlar akademiyasi faoliyati doirasida mamlakatimiz kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan sun'iy intellekt, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, robototexnika va mexatronika, farmatsevtika, biotexnologiya, dasturlash, sanoat dizayni, 3D modellash va boshqa istiqbolli yo'nalishlarda amaliy, innovatsion va startap loyihalari amalga oshiriladi.

12. Yoshlar akademiyasi a'zolari uchun zamonaviy infratuzilmaga ega sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi:

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Innovatsion ishlanmalarni joriy etish ilmiy-amaliy markazi, ilg'or texnologiyalar markazi va "Yashnobod" innovatsion texnoparkining binolari, laboratoriyalari, akseleratori va kovorking markazlarini Yoshlar akademiyasiga bepul foydalanish uchun ajratsin;

2020-yil 1-yanvarga qadar Toshkent viloyati hokimligi bilan birgalikda Yoshlar akademiyasining a'zolariga dunyoning yetakchi mamlakatlari tajribasi asosida Toshkent viloyati Nurafshon shahrida barpo etilayotgan "Aqlli shahar" hududida zamonaviy infratuzilmaga ega kichik va ixcham "Science Park" (Saynspark) tashkil etish bo'yicha takliflarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritilsin.

13. O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi Yoshlar akademiyasi a'zolariga biznesni tashkil etish va rivojlantirish, shu jumladan, biznes-rejalar va ta'sis hujjatlarini tayyorlash, sug'urta, buxgalteriya, hisobot berish, biznes sherkarlari, mini-texnologiyalar va uskunalarini topish bilan bog'liq xizmatlarni tashkil etish bo'yicha muntazam mahorat darslarini olib borsin.

14. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasiga doimiy ravishda Yoshlar akademiyasi faoliyatini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish, teleradiokanalarda intellektual yo'nalishdagi teleradiodasturlarni tashkil etish va efitra uzatish tavsiya etilsin.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-noyabrda "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3416-son qaroriga 4-ilovaga muvofiq o'zgartirishlar kiritilsin.

16. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi bir oy muddatda:

Yoshlar akademiyasining nizomini ishlab chiqin va tasdiqlansin;

manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritilsin.

17. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N.Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi A.A.Abduvaxitov zimmasiga yuklansin.

Sh.MIRZIYOYEV

12 ta "Spark" xalq ta'limi bo'limlari uchun

Namangan shahri markazidagi "Afsonalar vodiysi" istirohat bog'ida O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 28 yilligi va Bilimlar kuni munosabati bilan viloyatdagi oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari direktorlari hamda professor-o'qituvchilari, xalq ta'limi boshqarmasi tasarrufidagi ta'lim muassasalari rahbarlari va ilg'or pedagoglar ishtirokida tantanali marosim bo'lib o'tdi.



Tadbirda viloyat hokimi, Oliy Majlis Senati a'zosi Xayrulla Bozorov yig'ilganlarni ayyomlari bilan qizg'in tabriklab, davlatimiz rahbarining shu yil 23-avgustda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ta'lim tizimini yanada rivoj-

lantirish, soha xodimlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, nufuzini yanada oshirish bo'yicha bildirgan fikrlaridan kelib chiqadigan vazifalar xususida batafsil to'xtaldi.

Shundan so'ng tuman(shahar)lar xalq ta'limi bo'limlari

atomashinasi topshirildi. Marosimda oliy o'quv yurtlari va umumiy o'rta ta'lim maktablarining bir guruh ustoz-murabbiylari hamda peshqadam o'qituvchilari viloyat hokimligining "Tashakkurnoma"si va

so'nggi rusumdagi planshetlar bilan taqdirlandi.

Namangan shahridagi 82-umumta'lim maktabi direktori Maqsuda Mirzamova, To'raqo'rg'on tumanidagi 1-umumta'lim maktabining oliy toifali ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, "Ma'naviyat targ'ibotchisi — 2019" respublika ko'rik-tanlovi g'olibi Lobar Rustamova, NamDU professori Bahridin Talabov ko'rsatilgan e'tibor uchun minnatdorlik bildirib, yangi — 2019-2020-o'quv yilida Prezidentimizning xalq ta'limi xodimlariga bildirgan ishonchiga javoban siddiqdildan mehnat qilishga tantanali va'da berdilar.

— Uchqo'rg'onlik pedagoglar yangi o'quv yilida amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni belgilab oldi, — dedi Uchqo'rg'on tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri Bobur Zayniyev. Bor bilim va tajriba, kuch-g'ayratimizni ta'limda sifat va mazmun barqaror bo'lishi uchun safarbar etamiz.

G'anisher AKBAROV,
Abdusattor BOTIROV

Qorao'zak bilimlar makoni bo'ladi

Innovatsion rivojlanish vaziri Ibrohim Abdurahmonov o'tgan hafta Qoraqalpog'istonga safari davomida Qorao'zak tumaniga borib, hududdagi ikkita maktabning yangi o'quv yiliga tayyorgarlik holati bilan tanishdi.

Maktablar ta'mirlangan va bolalarni qabul qilishga shay bo'lsa-da, ayrim kamchiliklardan xoli emasligi qayd etildi. Xususan, mazkur maktablarda kompyuter sinflarining yo'qligi o'quvchilarning zamonaviy bilim va ko'nikmalarni puxta egallashlariga to'sqinlik qilishi inobatga olinib, maktablarni kompyuter va boshqa jihozlar bilan ta'minlash masalasi kun tartibiga qo'yildi.

Innovatsion rivojlanish vazirligi ishchi guruhi Qorao'zak tumanidagi 25- va 13-maktablarda bo'lib, vazirlik tomonidan taqdim etilgan uskunalar hamda jihozlarni topshirdi. Maktablarga 25 ta kompyuter, innovatsion kutubxona materiallari, elektron qo'ng'iroq, robototexnika to'plamlari hamda turli boshqotirma o'yinlari (to'jmot o'yini, innovatsion xarita, kimyoviy elementlar innovatsion jadvali, QR-book va boshqalar) taqdim etildi.

Qorao'zak tumanida joylashgan 13-maktabda 47 nafar o'qituvchi faoliyat yuritib, 450 nafar o'quvchi ta'lim olmoqda. Mazkur maktab direktori Erkinoy Berdiyeva o'quv yili boshlanishi arafasida maktabga qaratilgan e'tibor ayni mud-dao bo'lganini, o'quvchilarning kompyuter bilimlarini egalashi ularning hayotda o'z o'rinlarini topishlariga ko'mak berishini ta'kidladi.

Maktabga kompyuterlarning o'rnatilishi ta'limga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilishni, yangi bilimlardan xabardor bo'lishni ta'minlaydi. Endilikda o'qituvchilar ham, o'quvchilar ham darslarga puxta tayyorlanish, bilimlarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Kompyuter asoslarini o'rgangan, robototexnika kabi ilm-fan yutuqlarini o'zida mujassam etgan istiqbolli yo'nalishlar haqida tushunchaga ega yoshlarda o'ziga ishonch ortadi, yangi bilimlarni egallashga ishtiyoq paydo bo'ladi.

Vazirlik tomonidan har ikki maktabga ham QLF (Quantitative light fluorescence — miqdoriy nur fluorossensiyasi) texnologiyasiga asoslangan "Qscan" uskunasi taqdim etildi. U tishlarning tozalik darajasini aniqlovchi qurilma bo'lib, yopishib qolgan, ammo ko'z bilan ko'rib bo'lmaydigan ovqat qoldiqlarini, ularning tarkibidagi bakteriyalar ajratayotgan zararli moddalarni aniqlab, uni qizil rangda ko'rsata oladi.

Nazokat AZIM

Trening



"Lider" da lider o'qituvchilar tayyorlandi

Yangi o'quv yilidan boshlab Nukus, Xiva, Namangan va Toshkent shaharlarida Prezident maktablari o'z faoliyatini boshlaydi. Ushbu ta'lim muassasalarida o'quvchilarga ta'lim berishi kutilayotgan pedagoglar uchun maxsus trening-mashg'ulot tashkil etildi.

28-29-avgust kunlari Yakkasaroy tumanidagi "Lider" nodavlat ta'lim muassasasida Prezident maktablariga ishga qabul qilingan o'qituvchilar uchun "Cambridge" o'quv dasturi asosida o'quv-mashg'ulotlar o'tkazildi. Aytish joizki, maktablardan saralab olingan fan o'qituvchilari ikki bosqichli sinovdan o'tishdi. Ilk bosqichda Prezident maktablarida ishlashni istagan o'qituvchilardan hujjatlar qabul qilingan bo'lsa, ikkinchi bosqichda nomzodlar o'z fanlari bo'yicha imtihon topshirdi.

Prezident maktablarida ta'lim "Cambridge" o'quv dasturi asosida tashkil etiladi. Shu bois o'ttiz nafar xorijiy va 80 nafarga yaqin mahalliy o'qituvchi uchun "Cambridge International" mutaxassislari tomonidan tashkil etilgan trening darslarda yangi o'quv dasturini ta'lim jarayoniga tatbiq etishga tayyorlanishdi.

Biz O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi bilan hamkorlik qilayotganimizdan va ta'lim tizimidagi milliy islohotlarni qo'llab-quvvatlayotganimizdan xursandmiz, — deydi Britaniya Kengashining O'zbekistondagi vakolatxonasi direktori Reychel Ayland o'z intervyusida. — Prezident maktablarida bu yil 576 o'quvchi bilim oladi. Besh kun davomida o'qituvchilarning mahoratini oshirishi, yangi baholash tizimini o'rganishi, punktual ishlashi, o'quv dasturini sifatli rejalashtirishi uchun ma'lumotlar berdik.

Tadbir doirasida "Cambridge International" mutaxassislari tomonidan o'qituvchilarga ta'lim resurslaridan qay tarzda foydalanish va yoshlarning berilayotgan bilimlarni samarali egallashi bo'yicha to'liq tavsiyalar berildi.

Shoira BOYMURODOVA

O'qituvchi

nimani

o'ylaydi?



✓ Har Mustaqillik bayrami arafasida o'zgacha kayfiyatni his qilaman. Chunki men Mustaqillik farzandiman. Kasbinga e'tibor kuchayotgani, ta'lim sohasi yuqori pog'onalariga ko'tarilayotgani barcha xalq ta'limi xodimlari kabi meni ham xushnud etmoqda. Ustozlarni ulug'lagan yurtning mustaqilligi abadiy bo'lsin.

MUZAFFAR

✓ O'tgan yildagi kamchiliklarni bartaraf etish, yangi maqsadlar, ulkan muvaffaqiyatlar sari intilishning ibtidosi — birinchi qo'ng'iroq. Boshlanayotgan o'quv yilida barcha hamkasblaringma omad va kuch-quvvat tilayman. Yangi o'quv yili arafasida yurtboshimizning xalq ta'limi xodimlariga bildirgan ishonchi barchamizga yangicha ruh, ishchanlik kayfiyatini baxsh etdi.

Lobar YOQUBOVA

✓ Yangi ish boshlaganimda ustozim "Senga nazoratchi yoki tekshiruvchining keragi yo'q. Sen bugun 35 bolaga dars o'tasan, bilki, 35 xonadonda muhokamadasan", degan edi. Ha, azizlar, biz o'zimizga ishonch bilan boqib turgan qorako'zlarga ibrat, o'rnak va andoza ekanimizni aslo unutmasligimiz kerak.

Farida AXBORALIYEVA

✓ Roppa-rosa 22 yil avval o'yingaroqlikni yig'ishtirib ilm olaman, endi men ham kitob o'qiyman, deya boshi ko'kka yetgan jajji bolakayni hali yoshiga to'lmagan deya maktabga qabul qilishmagandi. O'shanda volidasining yoniga yig'lab kelib, "Mendan ham bo'yi pastlar o'qiyapti-ku, onajon, nega meni qabul qilishmayapti", deya zorlangan yigitcha bugun o'sha maktabda muallim. Har safar birinchi qo'ng'iroq chalinganda qalbim allanechuk entikadi, maktabga ilk qadam qo'yayotgan bolakaylarni ko'rib bolalik chog'imga qaytgandek bo'laman!

Oybek URUNOV

✓ Sentabr... Kuzning boshlanishi... Yorqinlik, jo'shqinlik, joziba, sehr, sog'inch, orzu, niyat, mehming ibtidosi... Bu oy maktab atalmish dargohga bayramona kayfiyatda kuch-g'ayrat, shijoat bilan yuksak marallarni ko'zlagan o'quvchilar, ularning otalari uchun ham unutilmas, hayajonli daqiqalarni hadya etadi. Buyuk maqsad, buyuk rejarlar, yuksak natijalar uchun balandroq yangra, birinchi qo'ng'iroq! Balandroq jarangla, birinchi qo'ng'iroq!

Gulchehra ASHUROVA

Mustaqillik inshootlari

Qutlug' bayram sovg'asi

Mustaqilligimizning 28 yillik shodiyonasi arafasida Surxondaryo viloyatining Termiz tumanida zamonaviy maktablar soni yana bittaga ortdi. Kuni kecha yangi tashkil etilgan 35-umumta'lim maktabining foydalanishga topshirilgani ko'plab o'quvchilar ko'nglini xushnud etdi.

Ta'lim maskanining tantanali ochilish marosimida Surxondaryo viloyati hokimi, viloyat hokimi o'rinbosarlari va mutasaddi tashkilot rahbarlari ishtirok etdi. Tadbirda viloyat hokimi To'ra Bobolov yoshlarning zamonaviy ta'lim olishi va kasb-hunar sirlarini puxta egallashi, xorijiy tillarni o'rganishi uchun barcha sharoitlarni yaratishga katta e'tibor qaratilayotgani, shuningdek, ta'lim sohasi vakillari oldida hali ko'plab mas'uliyatli vazifalar, yangi maqsadlar turganini ta'kidladi.

Yangi maktab o'zbek va boshqa xorijiy tillardagi zarur darslik va adabiyotlar bilan ta'minlangan. Sinfxonalar zamonaviy jihozlangan.

Ta'lim muassasasi binosini qurish va ta'mirlash ishlariga 6,185 milliard so'm mablag' ajratildi. Zamonaviy sport zali, o'quv



va laboratoriya xonalari, kompyuter sinfi davlat ta'lim standartlari asosida tegishli jihozlar bilan ta'minlanib, o'quvchilarning fanlarni puxta o'zlashtirishi uchun zarur sharoit yaratildi.

Shuningdek, tumandagi 36- hamda 23-maktab filialining yangi binosi ham foydalanishga topshirildi. 315 o'ringa mo'ljallangan 36-maktab binosining qurilishi uchun 4,182 milliard so'm mablag' ajratilib, barcha sharoitlarga ega o'quv hamda laboratoriya xonalari va sport zali barpo etildi.

MUXBIRIMIZ

Ko'rkam binoda

ta'lim samaradorligi oshadi

Yangi o'quv yilini Jizzax shahridagi 22-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi jamoasi ko'tarinki kayfiyatda kutib olmoqda. Boisi Investitsiya dasturi asosida ta'lim maskanida 320 o'rinli qo'shimcha bino qurildi. Binoda mavjud 14 ta sinfxonada o'quvchilarning zamon talabi darajasida bilim olishi uchun zarur sharoitlar yaratilgan.

— Qo'shimcha binoning foydalanishga topshirilishi 9-, 10-, 11-sinf o'quvchilarining bir smenada o'qishlariga imkon yaratdi, — dedi 22-IDUM direktori Dilfuza Saidova. — Ma'lumki, maktablar reytingini aniqlashda bitiruvchi sinf o'quvchilarining oliy o'quv yurtlariga kirish natijalari hisobga olinadi. Endilikda o'quvchilarimiz 9-sinfdan boshlab oliy o'quv yurtlariga kirishga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. Buning uchun qo'shimcha



mas'ulotlar va turli to'garaklar muntazam faoliyat ko'rsatadi. Bu yil 11-sinfni bitirgan ikki nafar o'quvchimiz yurtimizdagi nufuzli oliy o'quv yurtlariga davlat granti asosida talabalikka qabul qilindi. Bunday yutuqlarda ta'lim dargohida mehnat qilayotgan 103 nafar o'qituvchining xizmati katta.

— Ta'lim va tarbiya uyg'unligini ta'minlash asosiy vazifamiz, — dedi direktorning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari Umida Hasanova. — Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishda 5 ta muhim tashabbusning ahamiyati katta. Yoshlar qiziqishi va istaklarini inobatga olib, o'g'il-qizlarimiz bilimini mustahkamlash, adabiyot, san'at, teatr va sport sohasida iqtidorini ro'yobga chiqarishga yordam beradigan to'garaklar tashkil etyapmiz. Tashabbusning 1-yo'nalishida "SEATOR KIDS" (kashfiyotchilar), 2-yo'nalishida "Aykido" (ruhiy barqarorlik, tana tarbiyasi va o'zini himoya qilish), 3-yo'nalishida "Nyper text Assassins" (dasturlash asoslari), 4-yo'nalishida "Ertakchi bolajon", 5-yo'nalishida "Sog'lom turmush tarzi" to'garaklari faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Jo'rabek O'ktamov Termiz davlat universitetining rus tili fakultetini tugatdi. U diktant, test va suhbat asosida 22-IDUMga ishga olindi. Mehnat faoliyatini ahil jamoa va ko'rkam maktab binosida boshlayotganidan xursand. Ustozlar ko'magida yoshlar tarbiyasiga munosib hissa qo'shish — uning orzu-istagi.

Abdusattor SODIQOV,
"Ma'rifat" muxbiri

Obod yurtim maktablari

Peshku tumanidagi 41-umumta'lim maktabi jamoasi Mustaqillik bayrami va Bilimlar kunini 315 o'rinli yangi binoda kutib olishadi. Barcha qulayliklarga ega ko'rkam va zamonaviy mazkur inshoot qo'shaloq bayramda ular uchun munosib tuhfa bo'ldi.

Yangi binoda
qo'shaloq bayram

— Ta'lim muassasamizning ilgari binosi o'tgan asrning 60-yillarida kolxoz idorasi uchun mo'ljallab qurilgan. Keyinchalik moslashtirilgan holda umumta'lim maktabiga aylantirilgan, — dedi maktab direktori Feruza Yoshiyeva. — Shu bois yetarli darajadagi sharoitlarga ega emasdik. Sport zali va laboratoriya xonalari haqida-ku gapirmasa ham bo'ladi. 70 nafar o'quvchi va 20 nafar pedagogdan iborat jamoamiz bir necha yil shunday sharoitda faoliyat yuritib keldi. Mana, nihoyat biz ham kemptikliklardan, muammolardan xalos bo'ldik. "Obod qishloq" dasturi doirasida Sadir qishloq fuqarolar yig'ini hududida barpo etilgan yangi maktab binosida biz uchun barcha qulayliklar mavjud. Zamonaviy jihozlar bilan ta'minlangan sport zali, keng va shinam sinfxonalar, fan kabinetlari, laboratoriya xonalari... Bularning barchasi yangi o'quv yili oldidan bizga yangicha kuch-g'ayrat va shijoat bag'ishlamoqda. Bog'imusolik Jalil otaning ikki nevarasi ham shu maktabga qatnaydi. Bolalardan ko'ra Jalil otaning quvonchi cheksiz.

— Mana, yoshim ham oltmishdan oshib qoldi, — deydi otaxon. — Ochig'ini aytam, hayotimning keyingi yillari o'zgacha ma'no-mohiyat kasb etib bormoqda. Inson qadri, mehnati yuksalgan, bor e'tibor el-u yurt baxt-u iqboliga qaratilgan ayni damda yayrab yashagay keladi-da, albatta. Har gal atrofini kezib chiqqanimda, yangi bir inshoot, yangi bir manzaraga duch kelib, bahr-u dilim ochiladi. Shunday dorilomon zamonada yashayotganimdan, shunday yurtning fuqarosi ekanligimdan ich-ichimdan sevinaman, shukronalar aytaman. Ko'z oldimda bir paytlardagi pastqam, ko'rimsiz imoratlar o'rinni ko'zni quvnatguvchi zamonaviy, muhtasham binolar egallab, tobora go'zallik, salobat kasb etib borayotgani meni nihoyatda hayajonga soladi. 2-3 yil ilgari Sadir, Bog'imuso qishloqlariga kelganlar hozir bu yerlarni taniy olmasligi, shubhasiz. Bir-biridan shinam hovlilar, oynavand do'konlar, odamlarning og'irini yengil qilib, xizmat ko'rsatuvchi katta-kichik idora-yu ishxonalar... Ayniqsa, namunali uy-joylarning qirib, foydalanishga topshirilgani mahallamiz husniga husn qo'shdi. Ularda yaratilgan qulayliklar shahardagi uylardan hech qolishmaydi. Yangi maktab binosining qurilganligi ana shu xonadon farzandlari uchun ham juda quvonchli voqea bo'ldi.

Peshku tumanidagi 14-maktab jamoasi ham yangi o'quv yilini qo'shaloq bayram sifatida qarshi

olmoqda. "Obod qishloq" dasturi doirasida mazkur maktabning 410 o'rinli binosi rekonstruksiya qilinib, tamoman zamonaviy ko'rinishga keltirildi. Eng quvonarlisi, 240 o'rinli yangi o'quv binosining foydalanishga topshirilgani bo'ldi. Qipchoq qishlog'ida qad rostlagan ikki qavatli mazkur binoda zamonaviy o'quv vositalari va jihozlariga ega sport zali, laboratoriya xonalari hamda informatika xonasi ham mavjud.

— O'tgan o'quv yilida o'quvchilarimiz informatika fani yo'nalishida fan olimpiadasining tuman bosqichida 1-o'rinni olishdi. Holbuki, bizda shu paytga qadar informatika xonasi bo'lmagan, — dedi maktab direktori Shuhrat Mirxonov. — Yosh sportchilarimiz esa bir necha yildan buyon qo'l to'pi bo'yicha viloyatda peshqadamlar safida keilyapti. Sport zaliga ega bo'lmay turib, bunday yutuqlarga erishish qiyin, albatta. Maktabimizga roppa-rosa 41 yillik mehnati singgan jismoniy tarbiya fani o'qituvchimiz Narzi Yodgorov ikki yilcha ilgari nafaqaga chiqdi. Ketayotib, shu maktabda sport zalini ko'rolmaganidan o'kingan edi. Yangi bino qurilganini eshitib, uning naqadar sevinganini ko'rsangiz edi. "Imkoni bo'lsa, menga ham 2-3 soat dars bering, jilla kursa 1 yilgina sport zalida ishlasam, armonim qolmasin", dedi u.

Ayni paytda ilm maskanimiz qamrovi 560 nafarni tashkil etmoqda, pedagoglarimiz soni esa 44 nafarga yetdi. Yaratilgan yangi imkoniyatlar, ayniqsa, o'qituvchilarga berilayotgan yuksak e'tibor bugun hammamizga o'zgacha ishtiyoq baxsh etmoqda.

Aytish joizki, Buxoro viloyatida 2019-yil Investitsiya dasturi doirasida 16 ta, "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasida 36 ta maktabda qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirilmoqda. Ushbu maqsadlar uchun jami 151,4 mlrd so'm mablag' ajratilgan. Endilikda ta'lim muassasalarida yangi 4 392 ta qo'shimcha o'rin yaratilishi, 20 209 ta o'rinlar ta'mirlanishi ko'zda tutilgan. Buning natijasida navbatlilik ko'effitsiyenti 1,6 dan yuqori bo'lgan 5 ta umumta'lim maktabida o'quv jarayoni 1-navbatga keltiriladi.

Shuningdek, ta'lim muassasalarini zamonaviy mebel va jihozlar bilan ta'minlash maqsadida ham mahalliy budjetdan 4 289 million so'm mablag' ajratildi. Mazkur mablag'lar evaziga 37 ta ta'lim muassasasiga zamonaviy mebel jihozlari yetkazib berildi.

Iroda ORIPOVA,
"Ma'rifat" muxbiri

Maktablar reytingi ma'lum bo'ldi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrda "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasiga umumiy o'rta ta'lim muassasalari faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini aniqlovchi reyting indikatorlarini tuzish hamda tasdiqlash, 2019-yil 1-yanvardan boshlab tumanlar va shaharlar kesimida tanlash asosida umumiy o'rta ta'lim muassasalari reytingini tuzish vazifasi yuklatilgandi.

Inspeksiya va Xalq ta'limi vazirligining 2018-yil 17-dekabrda 9-mh va 14-mh-sonli "Umumta'lim muassasalarining faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, 2019-yil 8-19-aprel kunlari respublikamizning barcha tuman va shaharlaridagi 956 ta umumta'lim muassasasida nazorat ishlari va ijtimoiy so'rovnomalar o'tkazildi.

Bu jarayonlarni shaffof va sifatli o'tkazish uchun 57 ta ishchi guruh tuzildi. Guruhlar tarkibida 200 nafardan ortiq mutaxassislar faoliyat olib bordi. Jarayonda davlat inspeksiya-xodimlari, inspeksiyaning hududlardagi bo'limlari, OTM-larning ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limlari, Xalq ta'limi vazirligining hududiy boshqarmalari hamda tuman va shahar xalq ta'limi bo'limlari vakillari va OTMlar qoshidagi akademik litseylarning ona tili o'qituvchilari qatnashdi.

Umumta'lim muassasalarida ishchi guruhlar tomonidan bitadan 9-sinf qur'a tashlash orqali tanlab olindi va o'quvchilar ona tilidan diktant, matematikadan yozma ish topshirdi. Respublika bo'yicha 956 ta maktabdan jami 25 277 nafar o'quvchi jalb qilingan bo'lib, shundan 24 984 nafari (98,8 foizi) sinovlarda qatnashdi; 89 nafar o'quvchi sababli va 204 nafari sababsiz qatnashmadi.

O'quvchilar yozgan diktantlar mutaxassis-ekspertlar tomonidan shu kunning o'zida tekshirilib baholandi va natijasi haqida dalolatnomalar rasmiylashtirildi. Matematika bo'yicha yozma ishlarning javoblari kodlangan maxsus javoblar varaqlariga tegishli doirachalarni bo'yash orqali belgilandi va tekshirib baholash uchun Davlat inspeksiyasiga olib kelindi. Shuningdek, pedagog va rahbar xodimlar faoliyati samaradorligini o'rganish hamda umumta'lim muassasasida pedagog xodimlar uchun yaratilgan sharoitlar va o'qitish muhiti holati haqida o'quvchilar va o'qituvchilar orasida ijtimoiy so'rovnomalar o'tkazildi.

Bundan tashqari, xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etishda ta'lim muassasalariga ko'maklashish maqsa-

dida maktablarda 15-16 yoshli o'quvchilar bilan (PISA) xalqaro baholash dasturi darajasiga yaqinlashtirilgan savollar doirasida mashqlar bajarildi.

Qabul qilingan indikatorlar asosida respublika bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlardagi barcha tuman (shahar)lardan 10 foiz (jami 956 ta) umumiy o'rta ta'lim muassasalarining faoliyati tahlil qilindi va 2019-yil 1-iyul holatiga ko'ra ularning reyting natijalari tayyorlandi.

Joriy yilda reytingga jalb qilinadigan umumta'lim muassasalari ro'yxati ularning umumiy soniga nisbatan 10 foiz miqdorda tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlari tomonidan shakllantirildi va Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlandi.

Respublika bo'yicha 1-o'rinni G'ijduvon tumanidagi 27-maktab, 2-o'rinni Gurlan tumanidagi 1-maktab, 3-o'rinni Buloqboshi tumanidagi 30-maktab egalladi.

Eng yuqori o'rinni egalagan top-20 talikka Xorazmdan 7 ta, Namangandan 4 ta, Farg'onadan 4 ta, Buxorodan 2 ta, Andijon, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridan 1 tadan maktab kirdi.

Eng quyi o'rinni egallagan top-20 talikka Samarqanddan 10 ta, Toshkent viloyatidan 6 ta, Qashqadaryodan 2 ta, Buxoro va Navoiy viloyatlaridan 1 tadan maktab kiritildi.

Hududlar reytingida eng yuqori o'rinni Namangan, Xorazm va Navoiy viloyatlari egallagan bo'lsa, quyi o'rinlarda Qoraqalpog'iston Respublikasi,

Samarqand va Toshkent viloyatlari qayd etildi.

Tumanlar (va shaharlar) reytingidagi quyidagi holat kuzatildi:

Namangan viloyatida Namangan, Pop, Uychi tumanlari; Navoiyda Qiziltepa, Uchquduq va Navbahor; Farg'onada O'zbekiston, Dang'ara va Rishton; Andijonda Buloqboshi, Marhamat, Jalaquduq; Buxoroda G'ijduvon, Jondor va Qorovulbozor; Qoraqalpog'iston Respublikasida Qorao'zak, Ellikqal'a va To'rtko'l; Toshkent shahrida Sergeli, Mirotob va Mirzo Ulug'bek; Qashqadaryoda Shahrizabz shahri, Kitob va Koson tumani; Sirdaryoda Sardoba, Shirin shahri va Mirzaobod; Xorazmda Gurlan, Shovot va Yangibozor; Surxondaryoda Sariosiyo, Boysun tumanlari va Termiz shahri; Samarqandda Kattaqo'rg'on shahri, Ishtixon va Narpay; Jizzaxda Yangiobod, Paxtakor, Sh.Rashidov; Toshkent viloyatida Piskent tumani, Chirchiq va Bekobod shaharlari maktablari peshqadam bo'ldi.

9-sinf o'quvchilarining bilim darajasini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan nazorat ishlari jami 25 188 nafar o'quvchi qatnashdi va ularning 73,1 foizi ona tilidan olingan diktantdan va 48,2 foizi matematikadan olingan yozma ishdan ijobiy baholandi.

Diktant bo'yicha eng yuqori natijalar Navoiy, Buxoro, Namangan viloyatlarida va eng past natijalar Toshkent shahri, Samarqand va Toshkent viloyatlarida qayd etildi.

Matematikadan yozma ish bo'yicha eng yuqori natijalar Xorazm, Navoiy, Namangan viloyatlarida va eng past natijalar Toshkent, Samarqand va Buxoro viloyatlarida qayd etildi.

Oliy va birinchi toifali o'qituvchilar ulushi bo'yicha yuqori o'rinlarni Xorazm va Andijon viloyatlari hamda Toshkent shahri egallagan bo'lsa, quyi o'rinlarda Qashqadaryo, Surxondaryo va Samarqand viloyatlari maktablari ekanini aniqlandi.

Maktab o'qituvchilari jamoasi bilan TALIS—2018 savollari doirasida o'tkazilgan so'rovnomada jami 38 400 nafar pedagog qatnashdi.

Quyida ayrim savollarga berilgan javoblardan misollar keltiramiz: o'qituvchilarga "Sizning maktabingizda "Xalq ta'limi xodimlari mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimi" (VMning 275-qarori, 25.12.2005) qanchalik shaffof amalga oshirilmoqda?" degan savolga 21,2 foiz o'qituvchi bu ishda shaffoflik yo'qligini, 15 foizi bu ishga "mahalliylik" aralashganini va 16,7 foizi bunda maktab direktorining manfaati borligini qayd etgan.

O'qituvchilarga o'z ishiga qanday munosabatda ekanligini bilish uchun berilgan "Agar yana bir bor tanlash imkoniyati berilsa, o'qituvchi bo'larmidingiz?" degan savolga 10 foizi "O'qituvchi bo'lmasdim", deb javob bergan. 8,5 foiz o'qituvchi "Agar iloji bo'lsa, boshqa maktabga o'tmoqchiman", 16,5 foizi "O'qituvchi bo'lganimdan afsusdaman", degan fikrlarni bildirgan.

YAKUNIY REYTING (eng yuqori top — 20)

T/r	Viloyat	Tuman (shahar)	Maktab raqami	9-sinf o'quvchilarining bilim darajasi ko'rsatkichi	Oliy va birinchi toifali o'qituvchilar ko'rsatkichi	So'rovnomada natijalari	To'plangan ball (joriy yildagi 3 ta indikator bo'yicha)	Reyting balli (100 ballga nisbatan)
1	Buxoro viloyati	G'ijduvon tumani	27	25,00	12,68	18,27	55,95	86,08
2	Xorazm viloyati	Gurlan tumani	1	24,11	13,74	17,71	55,56	85,47
3	Andijon viloyati	Buloqboshi tumani	30	25,00	15,24	14,36	54,60	83,99
4	Farg'ona viloyati	O'zbekiston tumani	66	19,44	18,57	15,67	53,69	82,60
5	Namangan viloyati	Pop tumani	7	25,00	13,91	13,65	52,56	80,86
6	Xorazm viloyati	Gurlan tumani	41	22,41	10,32	19,41	52,15	80,23
7	Farg'ona viloyati	O'zbekiston tumani	37	25,00	8,80	17,63	51,43	79,13
8	Namangan viloyati	Namangan tumani	23	24,55	10,17	16,60	51,33	78,97
9	Namangan viloyati	Uychi tumani	23	22,69	15,09	13,19	50,97	78,41
10	Qashqadaryo viloyati	Kasbi tumani	26	23,75	11,72	15,46	50,93	78,35
11	Xorazm viloyati	Shovot tumani	28	24,00	12,44	14,22	50,66	77,94
12	Xorazm viloyati	Gurlan tumani	30	19,71	13,33	17,45	50,49	77,68
13	Farg'ona viloyati	Farg'ona shahri	10	24,57	7,83	17,73	50,12	77,11
14	Xorazm viloyati	Bog'ot tumani	5	23,03	11,71	15,37	50,11	77,09
15	Buxoro viloyati	G'ijduvon tumani	4	20,26	11,69	18,16	50,11	77,09
16	Namangan viloyati	Kosonsoy tumani	28	19,58	13,14	17,24	49,97	76,88
17	Xorazm viloyati	Xiva shahri	2	23,15	9,66	17,11	49,91	76,79
18	Xorazm viloyati	Gurlan tumani	23	18,75	12,80	18,26	49,81	76,63
19	Farg'ona viloyati	Farg'ona tumani	10	20,42	12,96	16,43	49,81	76,62
20	Surxondaryo viloyati	Qizilqum tumani	58	25,00	8,75	16,06	49,81	76,62

YAKUNIY REYTING (eng quyi top — 20)

T/r	Viloyat	Tuman (shahar)	Maktab raqami	9-sinf o'quvchilarining bilim darajasi ko'rsatkichi	Oliy va birinchi toifali o'qituvchilar ko'rsatkichi	So'rovnomada natijalari	To'plangan ball (joriy yildagi 3 ta indikator bo'yicha)	Reyting balli (100 ballga nisbatan)
1	Samarqand viloyati	Pastdarg'om tumani	21	3,47	2,84	14,02	20,32	31,27
2	Samarqand viloyati	Payariq tumani	71	5,42	0,00	14,86	20,28	31,20
3	Samarqand viloyati	Urgut tumani	85	2,50	5,00	12,75	20,25	31,16
4	Toshkent viloyati	Yangiyo'l tumani	45	10,42	0,00	9,84	20,25	31,16
5	Qashqadaryo viloyati	Chiroqchi tumani	166	5,43	1,05	13,68	20,17	31,03
6	Samarqand viloyati	Bulung'ur tumani	2	0,00	5,38	14,57	19,96	30,70
7	Toshkent viloyati	O'rtaqirchik tumani	11	5,00	4,76	9,47	19,23	29,59
8	Toshkent viloyati	Ohangaron tumani	38	6,47	1,33	11,27	19,06	29,33
9	Samarqand viloyati	Payariq tumani	81	4,17	0,00	14,88	19,05	29,31
10	Toshkent viloyati	Qibray tumani	3	0,89	3,20	14,69	18,79	28,90
11	Samarqand viloyati	Payariq tumani	8	5,29	0,00	13,19	18,48	28,43
12	Buxoro viloyati	Peshku tumani	28	2,50	3,08	12,69	18,27	28,10
13	Toshkent viloyati	Bekobod tumani	29	6,94	0,00	11,17	18,12	27,87
14	Toshkent viloyati	Bo'ka tumani	24	5,77	0,89	11,41	18,07	27,79
15	Samarqand viloyati	Qo'shrabot tumani	12	7,21	0,00	10,80	18,01	27,71
16	Samarqand viloyati	Payariq tumani	74	3,33	0,00	14,33	17,66	27,17
17	Navoiy viloyati	Tomdi tumani	25	6,25	0,00	10,84	17,09	26,29
18	Qashqadaryo viloyati	Qamashi tumani	16	2,40	1,51	13,15	17,06	26,24
19	Samarqand viloyati	Pastdarg'om tumani	48	2,50	0,85	12,94	16,29	25,06
20	Samarqand viloyati	Payariq tumani	79	0,45	0,00	13,61	14,06	21,63

9-sinf o'quvchilarining bilim darajasini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan nazorat ishlari jami 25 188 nafar o'quvchi qatnashdi va ularning 73,1 foizi ona tilidan olingan diktantdan va 48,2 foizi matematikadan olingan yozma ishdan ijobiy baholandi.

Diktant bo'yicha eng yuqori natijalar Navoiy, Buxoro, Namangan viloyatlarida va eng past natijalar Toshkent shahri, Samarqand va Toshkent viloyatlarida qayd etildi.

Matematikadan yozma ish bo'yicha eng yuqori natijalar Xorazm, Navoiy, Namangan viloyatlarida va eng past natijalar Toshkent, Samarqand va Buxoro viloyatlarida qayd etildi.

Oliy va birinchi toifali o'qituvchilar ulushi bo'yicha yuqori o'rinlarni Xorazm va Andijon viloyatlari hamda Toshkent shahri egallagan bo'lsa, quyi o'rinlarda Qashqadaryo, Surxondaryo va Samarqand viloyatlari maktablari ekanini aniqlandi.

Maktab o'qituvchilari jamoasi bilan TALIS—2018 savollari doirasida o'tkazilgan so'rovnomada jami 38 400 nafar pedagog qatnashdi.

Quyida ayrim savollarga berilgan javoblardan misollar keltiramiz: o'qituvchilarga "Sizning maktabingizda "Xalq ta'limi xodimlari mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimi" (VMning 275-qarori, 25.12.2005) qanchalik shaffof amalga oshirilmoqda?" degan savolga 21,2 foiz o'qituvchi bu ishda shaffoflik yo'qligini, 15 foizi bu ishga "mahalliylik" aralashganini va 16,7 foizi bunda maktab direktorining manfaati borligini qayd etgan.

O'qituvchilarga o'z ishiga qanday munosabatda ekanligini bilish uchun berilgan "Agar yana bir bor tanlash imkoniyati berilsa, o'qituvchi bo'larmidingiz?" degan savolga 10 foizi "O'qituvchi bo'lmasdim", deb javob bergan. 8,5 foiz o'qituvchi "Agar iloji bo'lsa, boshqa maktabga o'tmoqchiman", 16,5 foizi "O'qituvchi bo'lganimdan afsusdaman", degan fikrlarni bildirgan.

Reyting natijalarini tahlil qilish asosida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, maktablarda ta'lim sifatini ko'tarish, o'qituvchilarning bilim darajasini va pedagogik mahoratini oshirish, umumta'lim muassasalari faoliyatidagi ochiqlik va shaffoflik darajasini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqiladi va kamchiliklarni bartaraf qilish bo'yicha barcha imkoniyatlar ishga solinadi.

Akbar ALIMOV,
Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi kadrilar tayyorlash sifatini monitoring va nazorat qilish hamda reytinglar tuzish bo'limi boshlig'i

Munosabat

O'qituvchi ham har doim o'qishi zarur

23-avgust kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan videosektor yig'ilishi bo'lib o'tdi. Mazkur yig'ilishda ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshirish bo'yicha qator tashabbuslar ilgari surildi.



Davlatimiz rahbari va hukumatimiz tomonidan maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, o'qituvchilarning hurmatini joyiga qo'yish, ish haqini ko'tarish, ijtimoiy hi-moyasini kuchaytirish masalalarida ikki-uch yil ichida katta o'zgarishlar qilindi.

Shu bilan birga, ta'lim-tarbiya sifatini ta'minlash, pedagoglarning nufuzini oshirish o'qituvchilarning o'z-o'zini rivojlantirib borishi, kasbiga oid ilg'or bilimlarni o'zlashtirishi bilan ham chambarchas bog'liqdir. Ya'ni o'quvchilar, ota-onalar, qo'yingki, butun jamiyat oldida qadr-qimmatini ko'tarish uchun o'qituvchining o'zi ham astoydil harakat qilishi kerak. Chunki bundan keyin o'z ustida ishlaydigan, zamonaviy va ilg'or bilimlarni puxta o'zlashtiradigan pedagoglarning obro'si baland bo'ladi. Aksincha, yangiliklarga intilmaydigan, eski ko'nikmalardan voz kecha olmaydigan o'qituvchilar asta-sekin kasbiy hurmat-izzatini yo'qotib boradi.

Bugungi kun o'qituvchisi qanday bilimlarni puxta egallashi lozim? Shu savolga javob topish uchun bir necha yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Axborot bilan ishlash ko'nikmasi. Axborotlarning globalashuvi va ma'lumot olish imkoniyatining yuqorilgini inobatga olsak, o'qituvchilarda axborot bilan ishlash kompetensiyasi, ya'ni malakasini shakllantirish lozim. O'quvchidan kam axborotga ega, fan va texnologiyaga doir yangiliklardan har kuni xabardor bo'lmagan o'qituvchi ta'lim oluvchilarning qiziqishi va ehtiyojlarini qondira olishi mumkinmi? Albatta, yo'q. O'qituvchi o'quvchining bilimlar zahirasini hisobga olgan holda, ularni boyitishga xizmat qiladigan amaliy ahamiyatga ega o'quv materiallarini sinfxonasiga olib kirishi, ularni tushunarli va qiziqarli bayon etib berishi lozim.

Bilimni boyitish. Kognitiv (bilishga doir) kompetensiya, ya'ni o'rganish ko'nikmasini muntazam rivojlantirib bormaydigan o'qituvchining o'quvchi va ota-onalar oldida hurmati va obro'si baland bo'lmaydi. Bilimli ustoz o'zining yuqori intellektual salohiyati bilan qadr topadi. Oliy ta'limda olingan bilimlar doimiy boyitib borilishi, sayqallanishi va takomillasuvi joiz.

Kirishuvchanlik malakasi. O'quvchilar xushmuomala, bolaning yuragi va qalbini ulug'laydigan, uning ko'ngliga yo'l topa oladigan o'qituvchiga alohida mehr qo'yishadi. Bu esa, o'qituvchidan kommunikativ kompetensiya, ya'ni kirishuvchanlik malakasiga ega bo'lishni taqozo etadi. Faqat muloqot-mandlikning o'zi yetarli emas. O'qituvchidan o'z ona tilida savodli yozish va gapirish malakalariga ega bo'lish ham talab qilinadi. Og'zaki va yozma nutqda xatoliklarga yo'l qo'ymaslik, o'quv materialini adabiy tilida bayon etish o'z navbatida o'quvchilarda ham ona tiliga mehr-muhabbatni shakllantiradi.

Innovatsiyali malaka. Innovatsion ta'lim haqida ko'p gapiryapmiz. Biroq savol tug'ila-di: o'qituvchilarning bunday malakaga egami? O'z faniga doir yangiliklarni o'quv jarayonida qo'llagan, ulardan samarali foydalangan, yangilik yaratishga layoqatli o'qituvchiga inno-vatsiyali malakaga ega bo'ladi. Buning uchun malaka oshirish kurslarida uch yilda bir oy o'qishning o'zi yetarli emas, albatta. Innovat-sion malaka mustaqil o'qib-o'rganishni, o'z ustida tinimsiz ishlashni talab etadi.

Metodik malaka. Bugungi kunda nafaqat pedagogika oliy ta'lim muassasalari, balki boshqa yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari ham pedagogik faoliyat bilan shug'ullanayotganiga guvoh bo'lyap-miz. Fanni chuqur bilish zarurligini yuqorida ta'kidladik, bu o'ta muhim. Shu bilan birga, o'quv materialini o'quvchilarga yetkazish, ularning mustaqil bilim olishini qo'llab-qu-vatlash uchun o'qituvchi metodik kompeten-siya, ya'ni yetkazib berish malakasiga ega bo'lishi shart.

Bola ruhivati-ga kirish. O'qituvchi o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini yaxshi bilishi lozim. Oliy ta'lim muassasalarida umumiy psixologiyani o'rganish orqali bunga to'liq erishib bo'lmaydi. O'qituvchi psixologik kompetentlik, ya'ni ruhiyatni o'rganish malakasiga ega bo'lishi uchun psixologik adabiyotlarni o'qib-o'rga-nishi, pedagogik jarayonda har bir o'quvchini diqqat bilan kuzatib borishi, o'zida tug'ilgan savollarga javob izlashi lozim. Bola psixo-logiyasini chuqur bilmagan o'qituvchi hech

qachon bolaning qalbiga yo'l topa olmaydi.

Nizoli vaziyatlarni bartaraf etish ko'nikmasi. Jamiyatdagi ochiqlik va ta'lim so-hasi demokratlashuvi sharoitida o'z huquqini talab qilish istagi ayrim holatlarda noto'g'ri tushunilishi oqibatida o'quvchi-o'qituvchi, o'qituvchi-ota-onalar o'rtasida turli nizo-li vaziyatlar ham sodir bo'lib turibdi. Eng achinarlisi, o'qituvchilarning nizoli vaziyat-larni bartaraf etish ko'nikmasi, ya'ni konflik-tologik kompetensiyaga ega emasligi, obro'-sining tushishi, o'quvchilar oldida hurmati yo'qolishiga sabab bo'lmoqda. O'qituvchi bu masalada qay tarzda ko'nikmaga ega bo'li-shi mumkin? Buning uchun analitik tafakkur keng bo'lishi va mediatsiya texnologiyalarini o'zlashtirish lozim. Bu murakkab ish emas, mediatsiya usullarini o'rganish uchun Inter-net tarmog'ida yetarlicha mahorat darslari va ma'lumotlar mavjud.

Shaxsiy va kasbiy fazilatlar uyg'unli-gi. O'qituvchining obro'si va nufuzi uning ma'naviyatiga, shaxsiy va kasbiy fazilatlariga bog'liqdir. Ma'naviyat ko'nikmasi o'zining xulq-atvori, madaniyati, yurish-tu-rishi bilan o'quvchilar uchun axloqiy ideal bo'lib xizmat qiladi. O'qituvchilar orasida o'quvchilarni bilan munosabatlarni o'rnatishda masofani saqlay bilmaydigan, hatto maishat qilishga moyil bo'lganlarining uchrab turishi pedagogik kasbiga nisbatan nomaqbul tasav-vurlar avj olishiga sabab bo'lishi mumkin. Nizolada bir-ikki o'qituvchining kasbiga butun pedagoglarga nisbatan salbiy munosabat yu-zaga keladi. Shuning uchun o'qituvchilarning pedagog vijdoni, adolati, burchi, sha'ni kabi tushunchalarni yuragining tub-tubida saqlashi va unga sadoqatli bo'lishi muhim.

Hayotdan kasbdan zavqlanish hissi. Jamiyatni rivojlantirishning yangi bosqichida o'qituvchilarda g'oyaviy-mafkuraviy kompetentlik, aytish mumkin, ruhiy barqarorlik-ni rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu o'qituvchining g'oya va mafkura sohasida chuqur bilimga egaligi, kuchli kasbiy e'tiqo-di shakllangan hamda bunyodkor g'oyalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish layoqatidir. Yangi davrda milliy g'oyaning asosini har bir insonning o'zini baxtli sanay olishi tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi-da baxt, ya'ni hayotdan rozilikning sog'lik, mehr-muravvat ko'rsatish, bilimlilik, go'zal-likdan bahramandlik, e'tirof, obro'-e'tibor qozonish kabi tarkibiy asoslarini ko'rish mumkin. O'qituvchi, avvalo, o'zini eng baxtli inson deb hisoblashi, bundan chinakam g'urur va iftixor tuyishi, o'z-o'zini va o'quvchilarini baxtli qilishga intilishi lozim.

O'qituvchi imiji. Odatda imij tushun-chasini ko'proq siyosatchilarga nisbatan, ya'ni "siyosiy imij" ko'rinishida talqin qila-miz. Zamonaviy sharoitda o'qituvchining im-iji, ya'ni imijologik kompetensiyasi shakllan-gan bo'lishi zarur. O'qituvchi imiji — ta'lim oluvchilar, hamkasblar, ijtimoiy borliq, omma ongida o'qituvchi obrazining hissiy-ifodaviy idrok etilishi. Imij atrofida bilan munosa-bat o'rnatishga yordamlashuvchi o'ziga xos muhim insoniy vositadir. O'qituvchi qan-chalik kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lmagan, doimiy ravishda o'z-o'zini takomillashtirib borishi, o'z imijini yaratishi lozim. Pedagog imijini shakllantirishda ta'lim oluvchilarning fikrlariga tayanish muhim.

O'z-o'zini rivojlantirish. O'qituvchining o'zini-o'zi rivojlantirishi, ya'ni akmeologik kompetensiyasiga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Inson umri davomida o'zini-

o'zi anglashga harakat qiladi. Agar shunday bo'lmasa, biz qay tarzda o'zimiz haqimizda yaxshi bilishimiz mumkin? O'qituvchi o'zini-o'zi takomillashtirishni shaxsiy va kasbiy muammolarini o'rganishdan boshlashi kerak. O'zini-o'zi tashxis etish metod va usullarini tanlashda yordam olish uchun psixolog-mu-taxassis katta rol o'ynaydi. Pedagog o'zi ha-qidagi dastlabki tasavvurlarni turli pedagogik-psixologik metodikalarni o'tkazish orqali bilib olishi mumkin.

O'qituvchining faol fuqarolik pozitsi-yasi. O'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash uchun o'qituvchi faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishi talab etiladi. Ya'ni o'qituvchi jamiyat hayotida bo'layotgan o'zgarishlarni, tashabbuslarni teran tushu-nishi, ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etishi, daxldorlik va fidoyilik tuyg'ularini his qilishi va amalda namoyish etishi zarur. Har bir fan o'qituvchisi dars jarayonining kirish qismida fani bilan bog'liqlikda jami-yat hayotida bo'layotgan o'zgarishlar haqi-da ma'lumot berishi, munosabat bildirishi, shu asosda o'quvchilarning fanga qiziqishini oshirib borishi joiz. Interfaol ta'lim darsning tarbiyaviy vazifasini hech qachon inkor et-maydi. "Maqsadim faqat fanimni o'tish", deb hisoblaydigan o'qituvchilar katta xatoga yo'l qo'yishadi. Vatanparvarlik va fuqarolik tarbi-yasi orqali berilgan ta'lim natijali, ishonchli, mustahkam bo'ladi.

Sog'lom fikrlash zaruriyati. O'quvchi-larda sog'lom e'tiqodni tarbiyalash uchun o'qituvchining o'zi to'g'ri e'tiqod sohibi bo'lishi, ya'ni sanogin (sog'lom) fikrlash malakasini o'zlashtirishi zarur. Sog'lom fikrlash nafaqat o'qituvchi fikrlarining te-ranlashuvi, balki uning to'g'riligini saqlash mezonini o'zida o'zlashtiradi. Abdurauf Fitrat o'zining "Najot yo'li" asarida Oллоh bergan ne'matlarining eng ulug'i aql ekanini ta'kid-lab, quyidagi fikrlarni bildirgan: "Oллоh inson-ga eng buyuk va eng qimmat qurolni bergan. Inson shu orqali olamni mag'lub qilib shikast-lashi mumkin. Bu qurol nimadan iborat? U aql-dir. Odamzod chorasizligidan tang qolib, aqlni ishlashga majbur bo'ldi, uning soya-sida asta-sekin manfaatlarini qo'lga kiritib, ko'rgan zararlarni daf qildi: uy qurdi, tabiat ofatlaridan qutuldi". Shuningdek, olim aql-niing ikki turini alohida ajratib ko'rsatgan: aqli fitriy (indivud ongi) va aqli kasbiy (ilm olish va tajriba orttirish). Sog'lom fikrlash xarakter uyg'unligi, o'zidan va atrof-muhitdan rozilik, yomon odatlardan saqlanish, hissiyotlarini boshqarish, ehtiyojlarini nazorat qilishda namoyon bo'ladi.

Badiiy-estetik madaniyat. O'qituvchi-larning badiiy-estetik (Art) ko'nikmasi rivoj-lanishi juda muhim masaladir. Umumiy o'rta ta'limda STEAM ta'lim (STEAM education) usuliga alohida e'tibor qaratilayotgan ekan, ishini o'qituvchilarni san'at vositasida fanlarni o'qitishga o'rgatishdan boshlash lozim. Peda-gogning badiiy-estetik bilim va ko'nikmalari, ularni dars jarayonida qo'llay olish qobiliyati qator omillarga bog'liq. Buning uchun peda-gogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarda badiiy-estetik faoliyatga ehti-yoj va qiziqishni shakllantirish, pedagogik kasbiga ishtiroqni rivojlantirish, o'quvchilar-da badiiy-estetik bilimni o'stirish zaruratini tushuntirish, ta'lim jarayonida badiiy-estetik g'oyalarni ishlash chiqish va qo'llash qobili-yatini o'stirish masalalariga e'tiborni kuchay-tirish maqsadga muvofiq.

Xulosa o'rinda ta'kidlash lozimki, mak-tablar motivatsiya, imkoniyatlar va shaxsiy muvaffaqiyatga intilish dargohiga aylani-shi uchun ta'limni o'quvchining o'z-o'zini kashf etish vositasiga aylantirish lozim. Bu esa eng birinchi navbatda, millat ko'zgusi — muallimlarning bilim va innovatsion salohi-yatiga bog'liqdir.

Ulug'bek INOYATOV,
pedagogika fanlari doktori



O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

Mustaqil Vatanimizda istiqomat
qilayotgan barcha millat va elatlarni,
ushbu ayyom arafasida aziz yurtimizga
tashrif buyurgan xorijlik mehmonlar va
sayyohlarni, mamlakatimizda faoliyat
yuritayotgan xorijiy davlatlar
elchixonalari jamoalarini

**Eng ulug', eng aziz
bayram — O'zbekiston
mustaqilligining
28 yilligi bilan samimiy
qutlaymiz!**

Barchangizga tinchlik-xotirjamlik,
oilaviy baxt, mustahkam sog'liq, uzoq
umr, shaxsiy hayotingizda omad va
zafarlar tilaymiz.





NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

*Muhtaram yurtdoshlar!
Aziz o'qituvchi va murabbiylar!
Barchangizni mamlakatimiz
mustaqilligining 28 yilligi
ayyomi bilan muborakbod etamiz!
Vatanimiz ravnaqi, farovon
turmushimizni yanada
yuksaltirish, ilm-fanni
yangi-yangi kashfiyotlar bilan
boyitish, yosh avlodga
ta'lim-tarbiya berish
yo'lidagi mashaqqatli va
sharaflı mehnatingizda
barchangizga omad va
zafarlar tilaymiz!*

Ayyomingiz muborak bo'lsin, azizlar!

Sinab ko'ring

Mustaqillik darsiga tayyormisiz?

O'quvchilar yangi o'quv yili boshlanishini intiqlik bilan kutib, maktabdagi ilk mashg'ulotni jonquloqlari bilan tinglashadi. Shu bois barcha sinflar uchun "Mustaqillik darsi" qizg'in va ko'tarinki kayfiyatda o'tkazilishi an'anaga aylangan. O'quv zallari, sinfonalar o'ziga xos rangli ko'rgazmalar bilan bezatiladi. Mashg'ulotda davlat ramzlari, globus va texnik vositalar yordamida bolalarning tasavvuri boyitiladi. Ayniqsa, boshlang'ich sinflar uchun yurt madhi aks etgan she'r va qo'shiqlar ijrosi, rasmi tarqatma materiallar qiziqarli bo'ladi.

Bu yil "Jonajon O'zbekistonim, mangu bo'l omon!" shiori ostidagi mashg'ulotlarga yangiliklar va muhim ma'lumotlar tayyorladim. Jumladan, mamlakatimizda amalga oshirilgan o'zgarishlar, ta'lim tizimidagi islohotlar multimedia vositasi orqali uzatiladigan tasvirlarda qisqa va sodda usulda o'z ifodasini topadi.

Sinf o'quvchilari "Vatan" hamda "Zamin" guruhlariga bo'linadi. Ular mashg'ulot davomida kichik sahnaga osilgan sxema va diagrammalar, "O'yla, izla, top", "Sirli sharacha" kabi chizmalarni talqin etib, krossvord hamda rebus yechishi lozim. O'yin metodining bu shartlarida o'quvchilar kartochkalarga yashirilgan savollarga javob berib, ball

to'plashadi. "Prezidentimiz tomonidan 2019- yilga qanday nom berilgan?", "Davlatimiz tomonidan ta'sis etilgan qanday orden, medal va nishonlarni bilasiz?", "Respublikamizdagi viloyatlar soni nechta?" kabi savollar beriladi. 5—10 daqiqa ichida o'quvchilar to'g'ri javob topishga urinishadi. Qaysi guruh o'quvchilari yuqori ball to'plasa, rag'bat kartochkalari beriladi.

"Sahrli sharcha" usuli ham juda qiziqarli tashkil etiladi. Bayramona kayfiyat ulashish maqsadida xonaning ikki tomonida sharchalar osiladi. Ular ichidagi havo bo'shatilgach, qog'ozcha uchib chiqadi. Turli savollar yozilgan qog'ozchani o'qituvchi avvaldan tayyorlab, sharni shishirish paytida joylab qo'yadi. O'quvchilar rangli sharchalardan tanlashadi va maxsus topshiriqni bajarishadi. Bu usulda ham aniq fikrlovchi, bilimli va faol yoshlar rag'batlantiriladi.

Shundan so'ng Vatan haqidagi she'rlarni yoddan aytish, xalq maqollari va aforizmlardan namunalar keltirish, rasm chizish kabi ko'ngilochar mashqlar bajariladi. Musobaqa nihoyasida o'z bilimni hayotiy misollar asosida to'g'ri ifodalab bergan, tasvirlagan va ijro etgan bolalarga sovg'alar ulashiladi. Dars yakunida uyga vazifa sifatida "Mening jonajon o'lkam!" mavzusida tasviriy ish tayyorlab kelish topshiriladi. Bu ijodiy ishda o'quvchilar tabiat qo'ynidagi ajoyib manzaralarni chizishadi.

Farida NALIBOYEVA,
G'allaorol tumanidagi
73-maktab o'qituvchisi

"28" haqida bilasizmi?

Bu yil mamlakatimiz mustaqilligining 28 yilligini nishonlaymiz. Bu davr ichida davlatimiz mislsiz yutuqlarga erishdi. Bugun xoh sport, xoh ta'lim, xoh san'at sohasida bo'lsin, O'zbekistonning e'tirof etishga arzigulik muvaffaqiyatlari bisyor.

28 yil. Biz — matematiklar raqamlar va sonlar haqida gap ketganda bu sonning qanday son ekani, uning xususiyatlari haqida gapiramiz. Matematikada sonlar natural, butun, ratsional, haqiqiy, musbat va manfiy, toq va juft, tub va murakkab kabi sinf hamda guruhlariga ajratiladi. Buni qarangi, 28 soni natural, butun, ratsional, haqiqiy, musbat, juft, murakkab va mukammal son ekan.

Mukammal son qanday bo'ladi?

Mukammal son shunday sonki, uning o'zidan boshqa bo'luvchilari yig'indisi o'ziga teng.

28 sonining bo'luvchilari: 1, 2, 4, 7, 14, 28.

$1+2+4+7+14=28$

Mukammal sonlar ko'p emas: 2, 28, 496.

28 soni ham ana shunday sanoqligina sonlar sirasiga kiradi. Demak, bu yilgi bayram shodiyonimizni o'ziga xos yubiley, deb atasak ham bo'ladi.

Norbibi AKRAMOVA,
G'ljduvon tumanidagi
12-maktab o'qituvchisi

Asar tilini o'rganamiz

(G'afur G'ulomning 6-sinf adabiyot darsligida berilgan "Shum bola" qissasi misolida)

Har bir asarning mazmun-mohiyatini tahlil qilganimizda, eng avvalo, uning badiiyligini ifodalovchili tiliga e'tibor qaratamiz. Chunki asar tili tasvirlangan voqea-hodisani to'laonli ochib berishga xizmat qiladi. Adabiyot darslarida izohli lug'atlardan foydalanish badiiy asarlarning ijtimoiy hayotdagi o'rini teranroq tushunish, o'quvchining nutqiy savodxonligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bugungi o'quvchi faqat keksa avlod vakillari nutqida yoki asarlarda uchraydigan izohlab so'zlar ma'nosini o'rgansa, badiiy asar tili yordamida asar qahramonlari bilan til topisha oladi. Har bir kichik epizod, qo'llanilgan detallargacha ma'lumotga ega bo'ladi. O'quvchi asarni tushunib o'qisa, unda yana kitob o'qish istagi vujudga keladi. Shunday ekan, tilini tushunish biroz mushkul bo'lgan badiiy asarlarni izohli lug'at yordamida o'qishni o'rganishlari juda ham muhim. Men 6-sinf adabiyot darsligidagi G'G'ulomning "Shum bola" qissasidan berilgan parchadagi ayrim izohlab so'zlarning izohini keltirish misolida bu so'zlarning ma'nosi qanchalik muhim ahamiyatga egaligini ko'rsatib o'tmoqchiman.

"...Bu qishloqda Sariboy bo'lis degan katta yer egasi bor ekan".

Bo'lis — (r. volost — egalik qilmoq) o'tmishda Rossiya va unga tobe hududlarda uyvez tarkibidagi bir qancha qishloqni o'z ichiga olgan ma'muriy bo'linma.

Asarda Sariboyning bo'lis nomini olishi ham katta yerga egalik qilishi bilan bog'liq.

"Uning ming tanoblab hisoblangan olmozoriga epcil qo'lli xizmatkor doim zarur bo'lib turar ekan".

Tanob — (a. arqon; pay) O'rta Osiyo xonliklarida — tomonlari 60 gazdan iborat bo'lgan maydonga teng yuza (yer) o'lchov birligi.

Bu yerda bir tanob yerning o'lchovi ko'rsatilgan bo'lsa, shundan kelib chiqib Sariboyning yerini hisoblaymiz, ya'ni ming tanobni.

Bundan tashqari, o'quvchilar izohlab so'zlarning omonim variantlarini bilish orqali ham ularni o'z o'rni qo'llay oladi. Jumladan, **tanob** so'zining omonimik variantlari: 1. Yer o'lchash, chiziqli tortishlarda ishlatiladigan uzun ip. Tanob tortmoq. 2. Shohning amri bilan ming polvon va kal ikki kecha-kunduz yo'l tortib, g'osha tog'iga yetib, chortig'lar(chodirlar) tanobini tortib... yotaverdi. ("Zulfizar va Avazxon" dostoni)

"...— degan **dudmal** maslahat berdi".

Dudmal — nimaligi aniq bo'lmagan, har xil tushunsa bo'ladigan. Ma'nodoshlari: mujmal, muhmal.

Bir necha yillardan beri Sariboy bo'lisda xizmat qilayotgan ko'pni ko'rgan keksa kishilar boy hech kimning bog'ini ko'karmasliklarini yaxshi bilardi. Yosh bolaning bu yerda qolib ketishi uvol, shunday bo'lsa-da, to'zini o'nglab olgunga qadar shunchaki kun o'tib turishi uchun o'n-o'n besh kun ishlashini **"dudmal"** maslahat beradi.

"... tong azonda avrodchi so'filar-nin..."

Avrod — duolar, Bomdod, namozidan so'ng o'qiladigan duo.

Asarda tongda namozdan so'ng ovoz chiqarib tilovat qiladigan so'filar avrodchi so'filar deyilgan.

"...O'tovning eshigini qoqib «xudoyi qo'noq» dedim".

O'tov — Markaziy Osiyo, Janubiy Sibir ko'chmanchilarida yengil material, kizgidan konussimon shaklda yasalgan ko'chma uy, turarjoy.

Qo'noq — biror joyga, biror kimsaning

uyiga qo'ngan, tushgan yo'lovchi, sayyoh, mehmon.

Bundan tashqari, qo'noq so'zining boshqa ma'nolari ham bor: 1. Kun botgach, tovuqlar qo'noqqa chiqdi. 2. Qo'ng'ir-boshlar oilasiga mansub, doni tariqdan ko'ra maydaroq, boshloqli bir yillik o'simlik.

Asarda ham o'tov qirda qurilgan mavsumiy ko'chma uy sifatida berilgan, **"xudoyi qo'noq"** — mehmon Atoyi Xudo" mazmunida kelyapti.

"Qo'ndogdan ajragan kakku bolasi-day qo'narga shox-butoqsiz".

Qo'ndog — qushlar tunashi uchun o'rnatilgan dor, qushlar qo'lib dam oladigan, tunaydigan joy, qo'nolga.

Variantlari: 1) qo'ndog — miltiq, avtomat, qo'l pulemyoti va shu kabi qurollarning barcha qismlarini tutib turadigan va otganda yelkaga tirab turiladigan qismi. Miltiqning **qo'ndog'i**; 2) ko'mish uchun dastalab bog'langan tok. Toklarni qo'ndog qilmoq. 3) chaqaloqning beshikda belanishigacha bo'lgan, charvisimon moydan hali toza bo'lmagan davri va shu davrda chaqaloq o'raladigan maxsus yo'rgak. **Qo'ndogda** tekkan kasal(yoshlikdan qolgan odat, eski kamchilik). Bu sizga qo'ndogdan tekkan dard! (M.Boboyev, "Go'zallik istab").

"U qo'shoqlangan bir qo'ra qo'y ushida kuzatib turar edi".

Qo'shoqlanmoq — bir-biriga biriktirib, bir arqon bilan bog'lamoq, **qo'shoq qilmoq** (qo'y, echki va shu kabi hayvonlar haqida).

Asarning o'zidan misollar: 1. Omon belidan **qo'shoq** arqonni yechdi. Qolgan qo'ylarni **qo'shoqladik**. (G'G'ulom, "Shum bola" qissasidan).

"...qoqilgan namatdek..."

Namat — (f. kigiz) yungdan bosib ishlangan palos, kigiz.

...Yo'lning gard-g'ubori qoqilgan **namatdek** qilib yuborgan bu bashara

ko'zimga issiq-issiq ko'rinadi. Bu gapda o'xshatish mazmunini berish uchun qo'llangan. Ya'ni chang-to'zondan yuzlariga gard yuqgan.

"...qo'lidagi boshi cho'qmor kaltagi menga tanish emas".

Cho'qmor — to'qmoq shaklidagi qadimiy urush quroli; gurzi, shashpar.

Variant: tosh kesadigan, parchalaydigan og'ir to'qmoq. Farhod qo'lida tasha va cho'qmor bilan katta-katta tog' toshlarini qo'porib, Sirmi bo'g'a boshladi (I.Jabborov, "Ko'hna xarobalar ishi").

Asarda Omonning qo'lidagi qo'ylarni qaytaruvchi kaltagining boshi to'qmoq shaklida bo'lgani uchun cho'qmorqa o'xshatilyapti.

"Og'ixonaga kiradigan yo'lak yonidagi g'ulomgardishdan yotishga joy ko'rsatdi".

G'ulomgardish — xizmatkorlar (qadim o'tmishda qullar) yashashi uchun qurilgan boshpana.

"...xuddi sag'risiga bo'ka tushgan-day yana o'ynoqlab qochadi".

Bo'ka — hayvonlar terisi ustiga tushadigan parazit hasharot.

Asardan: Go'shting olqarg'aga xomtalash bo'lgur, men yetib borgunimcha o't chimbidi turadi, yetib borganimdan keyin, menga bir qarab qo'yadi-da, xuddi sag'risiga bo'ka tushganday yana o'ynoqlab qochadi.

"... tering sangobda chirigur sigir ..."

Sangob — teri oshlash uchun qilingan ohak yoki qum eritmasi.

Asardan: Shu ahvolda tipirchilab yotgan, tering **sangobda** chirigur sigir birdan igr'ib o'midan turib dumini xoda qilib bir qochib berdi.

Yuqoridagi birgina qissada berilgan parchadan o'quvchi uchun izohi talab etiluvchi so'zlarni keltirdik va izohli lug'atdan foydalanib asar tilini o'rgandik. Kitobxon o'quvchida esa asar tilini bilish yordamida tasavvur uyg'ondi, u shu tasavvur orqali tahlil qila oldi, ijodiy munosabat bildirdi, xulosa chiqardi. Demak, izohli lug'atning davr oshgan, tarixiy, yaqin o'tmishdagi asarlarni o'qishda o'rni beqiyosdir.

Dildor NURMUHAMMEDOVA,
Termiz tumanidagi 9-maktabning
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

“Xotiram siniqlari” da hurriyat sog'inchi

Inson yoshi bir joyga borib qolganda nimanidir uyg'tisi, dilining tub-tubida qolib ketgan yuktan o'zini xalos etgisi, bor-budini to'kib solgisi keladi. Bu esdalik, yodgorlik, kundalik, tundalik yoxud xotiralar bo'lishi mumkin. Istisnosiz tarzda barchada bo'ladigan bu istak borasida ko'proq ijodkor ahliligagina omad kulib boqqan. Negaki ularning so'zlari el orasida “Yodgorlik” (Mirtemir), “Uyqu qochganda” yoxud “Tundaliklar” (Asqad Muxtor), “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” (O'tkir Hoshimov), “Iqronoma” (Lev Tolstoy) sifatida qo'lma-qo'l yuradi. Shu tarzda aytilmay qolgan qaysidir so'zlar, hayot maktabida qo'lga kiritilgan noyob topilmalar, iqrorlar, dilso'zlar ko'pchilikka yetib boradi.

Zulfiyaxonimning “Xotiram siniqlari” dostoni ham ayni shunday asarlardan hisoblanadi. Bu doston shoiraning “aytilmagan alami”, “yozilmagan she'ri”dir. Bu xotiralar bilan tanishar ekanmiz, “jahon minbarlarida yangragan she'rlari Sharq ayolining aql-u zakosi, fazl-u kamolining yorqin ifodasi sifatida millionlab she'riyat muxlislariga odamiylik, muhabbat va sadoqatdan saboq bergan” shoirani qaytadan kashf etamiz, uning butun umr qalb tubida yotgan dardlariga hamdard bo'lamiz.

“Xotiram siniqlari” 1995-yilda, mamlakat mustaqilligiga endigina 3 yil to'lgan paytda yozilgan. Aslida, dostonning — shu vaqtga qadar aytilmagan so'zlarning yozilishiga sabab ham mana shu qutlug' kunning kelganidir. Shu bois ham shoir:

*Sen shu hur nazmga ixtiyor herib,
Men og'ir bulutdek bir yog'ib oldim,*

— deydi.

Doston hurriyatning nima ekanligini dildan anglagan, uning kelishini pinhona sog'inib, pinhona kutgan kishining qo'rquv va hayajoni, xavotir va quvonchini ifoda etuvchi satrlar bilan boshlangan:

*Hurriyat, keldingmi, nahotki kelding,
Pinhona sog'indim, pinhona kutdim.
Yomg'irga bag'rini tutgan sahrodek —
Sening nasimingga qalbmni tutdim.*

Umr bo'yi shuhrat va el ardorg'ida bo'lgan Zulfiyaxonimning hurriyatni bu qadar tashnalik bilan kutganining boisi kitobxonni qiziqitirishi tabiiy, albatta. Doston davomida erkka, erkinlikka tashna qalbning torlari bir-bir yechilib, savollarga javob topiladi.

*Mana, qalb — baxt-u dard to'la dengizim,
Mavjlari shuhratim, hijron, o'kinchim.
Qo'rquv kalxatlari tegib sindirgan —
Yodim siniqlari ostda — cho'kindi.*

Inson ko'pincha biror narsa borasida ko'rganlariga qarab xulosa chiqaradi, baho beradi. Ammo ko'z bilan ko'rib bo'lmay, botinda yashirin haqiqatlar ham borki, mana shular orqali narsaning mohiyati ayonlashadi. Shu vaqtgacha biz Zulfiyaxonimning dengiz mavjlarini — shuhrati va hijronini o'rganganmiz. Bu doston orqali esa shoir bizni dengiz ostiga — aytilmagan, yozilmagan xotiralariga, so'zlariga oshno etadi. “Yuzi qontalash” bu xotiralar o'quvchi ko'z o'ngida jonlanib, haqiqat pardalari ko'tariladi.

“Xotiram siniqlari”da dastlab shoiraning onayizori bilan bog'liq suratlar naqshlanadi. Go'daklari qalbin

mumtoz nazm sirlaridan boxabar etgan munisa ayol siymosi shunday tasvirlanadi:

*Bu onam — tangrining baxtli onida
Ayri ixlos bilan yaratgani chin.
Qarog'ida mehr shamlari yoniq —
Gullagan o'rikday orasta otin.*

Ona tasvirida shoir o'zgacha, hech kimning xayoliga kelmagan tashbeh qo'llagan: “Gullagan o'rikday orasta otin”. Balki “So'fi Olloyormi, devona Mashrab bayozlarin o'pib qo'lga olgan” onasining sehrli olamga asir etib, “rang-u ohanglarni jonga quvgani” bois Zulfiya — Zulfiyaxonim-u, el ardorg'idagi shoir bo'lgandir. Balki yangasiga esh bo'lib tikkan palagida qolgan tilaklari unga tinchlik bermay, qog'ozga oshno etgandir. Balki o'ttizga yetmayoq uni topgan dard butun umrlik qismatiga aylangandir. Har holda, “usti butun, ichi tutun” onaning, “metindan yaralgan jon” — otaning irodasi farzandga ham ko'chgani aniq. Bo'lmasa, “yashin urgan polapon siyoq qolgan” kishining:

*Bo'ldi bas. Jangdan so'ng horg'in sarkarda,
Tirik askarlarin tizganday qator —
Men tirik hislarim bir joyga yig'dim
Va kuchli yashashga ayladim qaror —*

deyishi oson emas, albatta.

Shoiraning otasi zahmatkash temirchi bo'lgan. Otasining olovga yo'ldosh kasbida, shoir o'zi yozganidek, hamma vaqt zavq ko'rgan. “Xotiram siniqlari”da siyosat va turmush yukidan qaddi egik ota timsoli ham o'ziga xos tasvirlangan. Shoir otaning qizga bo'lakcha mehri bo'lishini “Otam ta'biricha edim boychechak” satri bilan ifodalagan bo'lsa, ota portretini shunday chizgan:

*Buncha chidam qaydan — po'lat, olovdan,
Metindan yaralgan jonmida otam...
Otash og'ushidan topib bizga non,
G'amga ham chidamli bo'larkan inson.*

Shoir nazdida otasi chin bardosh sohibi. Otaning kasbi kabi og'ir-bosiq fe'li birgina so'zidan ma'lum bo'ladi: “Soldim Xudoga”. Bu Xudoga ishongan, uning adolatiga umid qilgan kishining og'riqli nolasi edi.

Shoiraning eng og'ir, og'irdan-da og'ir xotirasi akasi bilan bog'liq. Otasini “g'amga ham chidamli” etgan, onasini “qo'llarida mushtday tugunchak” bilan Tosh shaharni kezdirgan bu voqea — bundan (doston 1995-yilda yozilgan) 60 yil oldin, ya'ni 1930—1935-yillar — “Tig'day tillarida yalay boshlagan” zamonda sodir bo'lgan:

*... Aka, ko'zingizda otash bor edi,
Aka, joningizda quyosh bor edi,
Sultonlikka loyiq kelbat, layoqat,
Sardorniki yanglig' bardosh bor edi.
Sizni-da qora tun oldilarmikin,
Qo'lingizga kishan soldilarmikin,
Yukinish, yalinchmas — g'ururni ko'rib,
Vahshiy g'azablarda yondilarmikin?!*

Shoiraning akasini ham Abdulhamid Cho'lpon, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosirlarning boshiga tushgan qismat chetlab o'tmagan. Bu qirg'in-qatliomga or-nomusi baland, g'ururi yuksak, mard o'g'lonlarning necha-nechasi uchramadi deysiz? Shoir, ehtimol, buni o'sha payt (15—18 yoshlarida) chuqur anglamagandir. Biroq anglab yetganda ham hech so'z aytolmasdi. Axir u paytda shoiraning ta'biri, “nechalar yashardi zamonn sizlab”. Ana o'sha

aytilmagan so'zlar singilning yuragini zardobga to'ldirgan. Aytilmagan yig'i-yo'qlovlari butun umr bo'g'zini kuydirgan, ichida otash — olov yondirgan:

*Aka, jonim akam — jondoshim akam,
Oltmish yil ortimga qaytib yig'layin,
Bo'g'zimni kuydirar yo'qlovlarimni
“Oh”larim eritar — aytib yig'layin.*

Bu — vaqtda aytilmagan, yurakning tub-tubida tosh qotgan va har qanday toshni ham eritib sel qiladigan yo'qlov. “Sibirning nur tushmas o'rmonlarida qushday qirilgan norg'ul o'g'illar”ga aytilgan marsiya. “Mehrdan bino” bo'lgan singilning akasining qotillari-ga “o'q qilib otgan nafrati, o'chi”. “Xalq ganjin yulmoqqa cho'zilgan qo'lga alvon guldastalar tutgan”larning ohu zori. Yurakni kemiruvchi bu og'riqlarni yashirib yashash uchun insonda qancha matonat va bardosh bo'lishi kerak?! Zulfiyaxonim o'zida o'sha kuch va chidamni topa olgan, ichi ostin-ustin bo'lsa-da, “yurtini bo'ron bo'lib” keza olgan, akasidan, otasidan, suyuqli yoridan ayrilsa-da, bolalari uchun yashashga kuch topa olgan haqiqiy o'zbek ayoli — onasi edi.

Jim yashash, jimlik ichra ko'milib yashash davr shiori bo'lgan bir paytda ichdagi bo'ronlarni bostirish, qaysidir hislarni bandi qilib yashash yuki juda og'ir bo'lgan. Bu og'ir yuk qalbi uyg'oq kishilarni qadam-baqadam ta'qib etgan. Ular kunduz o'y-xayol-larni band etgan bo'lsa, tunlari tushlarni egallagan, xul-las, jonga ming bir olov yoqqan. Zulfiyaxonimga ham bu og'riqlar begona bo'lmagan. “Xotiram siniqlari”da jonni otashlarga solguvchi bu dardlar shunday ifodalan-gan:

*Tushlarimda topib akam jasadin,
Otamning yoniga qazitdim qabr.
O'zim yonganimda ruhlar yondi deb,
Xokiga suv sepib, tiladim sabr.*

Shoir o'sha zamonda o'zini ovutishning bundan-da o'zga chorasini topmagan.

Dostonning keyingi bandlarida qalb taftishi poya-ma-poya oshib boradi. Yangi hayot deb “betalab, beno-lish” yashalgan kunlar esga olinadi. Umrning ko'p g'ofilliklari, ishonch-e'tiqodning puchga chiqqani mar-dona tan olinadi. So'ng keksalarga xos umr sarhisobiga o'tiladi:

*Qay biri vazminroq savobmi — gunoh,
Yashadim-ku riyo, haromdan nari.
Kuyganman. Bosh-oyoq kuyik jismimning —
Nimasin yoqardi do'xax o'tlari.
Bu dunyoda ko'rgan azob, ko'zyoshlar
Savob posangisin xiyol bosarmi?
Gumrohlik pallasin to'ldirsa toshlar,
Eng baland doriga meni osarmi?*

Og'riqli bu savollar shoiraning uyg'oq ruhi, bezovta qalbining tarjimoni. Bu savollarni o'ylab yashagan in-son insoniylik sharafiga boshqalardan ko'ra chuqurroq anglagan va umrning qiymati — bajarilgan ishlar, amal-lar, aytilgan so'zlar, yashash tarzini bir-bir tahlil eta oladigan gunoh va savobning ajri xususida o'yna tola-di. Umrining ko'pi ketib, ozi qolgan inson borki, o'z qalbi oldida mana shu kabi hisob beradi.

Xullas, “Xotiram siniqlari” Zulfiyaxonim ijodi-ni o'ziga xosligini dalillovchi, tuyg'ular ifodasining samimiy va haqqoniyligi bilan she'rxon diqqatini tor-tuvchi asar. Ushbu doston zahmatkash, mehnatkash o'zbek xalqiga ruhi o'zga olamlarga qush bo'lib uchgan suyuqli qizidan yodgor ijod daftarini bo'lib qoladi.

AQSh ta'limidan olgan taassurotlarim

Joriy yilning iyun-iyul oylarida AQSh davlat ta'limiy va madaniy ishlar bo'limi tomonidan tashkil qilingan SUSI dasturi (The Study of the U.S. Institutes for Secondary Educators — O'rta ta'lim beruvchilar uchun AQSh ta'lim institutlari) bo'yicha 5 haftalik o'quv kursini tamomlab qaytdim. Mazkur o'quv dasturi davomida bizga hamroh bo'lgan 18 davlat o'qituvchilari bilan AQSh jamiyati, madaniyati, qadriyatlarini va ta'lim muassasalarini o'rganish maqsadida Montana, Shimoliy Karolina, Kolumbiya shtatlarida bo'ldik.



Meni ko'proq AQSh ta'lim tizimi qiziqtirdi. Har qanday o'qituvchi uchun, shubhasiz, bu eng qiziq masala bo'lsa kerak. Rivojlangan va ko'p yillik tarixga ega bo'lgan mamlakatga qilgan safarim chog'ida u yerning ta'lim tajribasidan, metodlaridan misolcha bo'lsa-da, o'rganib, yurtimga olib ketishni maqsad qildim.

O'quv-mashg'ulotlar davomida Amerikadagi o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarida bo'lib, u yerdagi ish jarayonini kuzatdik. Bundan tashqari, amerikaliklar oilasida 2 kun yashab, Amerika oilasi va ta'limi o'rta-sida chambarchas bog'liqlik borligini angladim.

Davlatning eng muhim tayanchi — ta'lim

Amerikaliklar davlatning eng muhim tayanch nuqtasi ta'lim tizimi ekanini al-aqachon tushunib yetgan, shuning uchun ta'lim tizimiga juda katta e'tibor qaratishadi. Shunga qaramay, tizimda bir qator muammolar ham yo'q emas.

AQSh ta'lim tizimi maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, o'rta va oliy ta'lim bosqichlariga bo'linadi va u 3 organ tomonidan nazorat qilinadi va moliyalashtiriladi: federal, davlat va mahalliy hokimiyat.

Maktablarda tartib, sharoit, muhit, jarayon turlicha. Sababi, AQShdagi 50 ta shtatning har biri o'ziga xos ta'lim tizimiga ko'ra faoliyat yuritadi. Davlat maktablaridagi o'quvchilar yil davomida o'zlari yoqtirgan fanlarni tanlash va aynan o'sha fanlardan chuqurroq ta'lim olish imkoniyatiga ega. Masalan, jismoniy tarbiya fanidan o'quvchi o'zi uchun qiziq bo'lgan sport turini tanlaydi va maktabda tashkil qilingan jamoa a'zosiga aylanadi. Yuqori sinfda ham o'quvchi o'zi o'rganishi uchun fanlarni tanlay oladi, lekin unga tanlash uchun ko'proq fanlar taqdim etiladi. Baho qo'yish masalasida esa amerikalik o'quvchilar A, B, C, D ko'rinishida baholalan ekan. O'qituvchilar o'quvchilarning baholarini barchaning oldida e'lon qilmaydi. Ota-onalarga farzandlari-

ning natijalari bir o'quv yilida 4 marotaba tabelada ko'rsatiladi. Olingan baholar hisoblanib, u o'sha ball asosida institutga imtihon topshirishi mumkin.

Safarimiz chog'ida 6 ta maktabda bo'ldik. Kuzatishimcha, AQShda ota-onalar maktab tashkiliy ishlarida faol ishtirok etadilar. O'quvchi darslardan so'ng, asosan, sport mashg'ulotlariga jalb qilinadi.

Formadan ham muhim masala bor!

Yurtimizda o'tgan bir yil davomida o'quvchilar formasi masalasi achagina baholar markazida bo'ldi. Umuman, bizda o'quvchining darsga maktab kiyimida kelishini qat'iy nazoratga olishga katta e'tibor qaratiladi. AQShdagi men borgan maktablarda o'quvchilar maktab formasini umuman kiyishmas ekan.

Formasiz yurishni nafaqat o'quvchilarda, balki o'qituvchilarda ham kuzatdim. Ammo bu ta'lim sifatiga hech qanday salbiy ta'sir ko'rsatmasligini, darslarni, o'quvchi va o'qituvchilar salohiyatini kuzatgach, anglab yetdim. Shu o'rinda biz ham hadeb forma haqida bahs yuritish, o'quvchini oq ko'ylak kiymagani uchungina darsga kirgizmaslikdan voz kechib, asosiy e'tiborni sifati bilim berishga qaratish vaqti yetganligini tushunishimiz kerak.

Tekshiruvlardan xoli maktablar

Meni "Amerika maktablariga ham tekshiruvchi (komissiya) keladimi?", "Maktablarni tekshiruvchi tashkilotlar qaysilar?" degan savollar ham qiziqtirdi. Ammo bu savollaringa javob olgach, hayratim oshdi. Sababi Amerika maktablarini tekshirish, nazorat qilish uchun komissiya deyarli kelmas ekan. Ular bu masalaning ham zamonaviy, hech kimga xalal bermaydigan, o'qituvchilarni ishdan, o'quvchilarni darslardan chalg'itmaydigan usulini joriy qilishgan ekan. Ya'ni maktab o'quvchilarining bilimni tekshirishga mo'ljallangan maxsus bo'lim bo'lib, u har semestrda o'quvchilarga test

jo'natadi. Olingan test natijalari esa davlat ta'lim bo'limiga taqdim etiladi. Eng past reyting olgan maktabga maxsus tekshiruv jo'natilib, o'sha maktabdagi muammo o'rganib chiqiladi va muassasaga amaliy yordam ko'rsatiladi. Eng muhimi, bu kabi tekshiruv usuli faqat maktab va o'quvchilarga yordam berish uchun amalga oshirilgan ekan.

O'quvchilar nega burchalik erkin?

Montana shtatining Mizzula shahrida joylashgan "The big high school" maktabida ayrim fanlardan dars jarayonini kuzatdik. Geografiya darsida biz turli davlat vakillari sifatida qatnashdik va 6 ta partaga bo'ldik. O'quvchilar guruhlariga bo'lingan holda navbatma-navbat bizning oldimizda o'tirib, davlatimiz poytaxti, dini, madaniyati, aholisi haqida savollar bera boshladilar. Olingan ma'lumotlarga qarab, guruhlar biz yashaydigan davlatni topishlari lozim edi. Dars jarayonida har bir o'quvchining erkin muloqot qila olishi meni hayron qoldirdi. O'quvchining o'z fikrini keng yoritib berishi, oldidagi notanish odam bilan kulib, bamaylixotir munosabatga kirishishiga erishish sirini bilmoqchi bo'lib, darsni olib borgan o'qituvchini savolga tutdim. Buning uchun darslarda o'quvchilarga erkinlik va mustaqil fikrini tushuntirib berishiga sharoit yaratib berish lozim, deya ta'kidladi pedagog.

Shuningdek, amerikaliklar oilasida yashab bildimki, ota-ona farzandiga go'daklik davridan boshlab xuddi kattalardek munosabatda bo'lar ekan. Bu esa bolaning har qanday muloqotda o'zini erkin tutishining yana bir omilidir. Menga mezbunlik qilgan amerikalik oila boshliqlarining aytishicha, ular o'z farzandlarini turli xil oilaviy bazmlarga, kecha va dasturlarga olib borib, u yerdagi odamlar bilan muloqot qildirar ekan. Natijada bolada ko'pchilik orasida bemaolol o'z fikrini bayon eta olish, notanish insonlar bilan til topishib ketish, shaxsiy pozitsiyasiga ega bo'lish kabi ko'nikmalar shakllanadi.

Volontyorlik — maktab va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlik

"Men jamiyat a'zosiman, jamiyatga kerakman va o'zimga bo'lsa-da, shu jamiyatning gullab-yashnashiga hissa qo'shishim kerak", degan tushuncha hozirgi kunda ko'pgina amerikalik o'quvchilarning ongiga singdirilgan. Bolalar kichikligidan boshlab jamoat ishlariga ko'ngilli sifatida jalb etiladi. Jamoat ishlariga bolalarni nafaqat maktab, balki ota-ona ham targ'ib qiladi. Ota-onalar farzandining jamoat ishlarida faolligini ta'minlaydi, hatto o'zlari ham qo'llaridan kelgancha maktabning takliflariga xayri-xoh bo'lishadi va lozim bo'lsa, moliyaviy tomondan ham ko'mak beradi. Masalan, qaysidir maktab o'quvchilari o'zlari xohlagan holda xayriya ishiga borib, u yerda birgalikda mehnat qiladilar.

Bolalar kichik yoshligidan boshlab volontyor sifatida faollasha boshlaydi. Safar davomida bizni muhtojlar uchun tashkil qilingan "Foodbank" nomli kat-

ta do'konga olib borishdi. U yerda turli yoshdagi odamlar muhtojlar uchun ovqat tayyorlayotgan edi. Bu manzara kishini zavqlantiradi. Hatto ikki nafar bog'cha yoshidagi bolakayning plastik idishlarga mevalarni joylab, xayriya ishlariga o'z ulushini qo'shayotgani juda ham ibratli manzara. Hayot tashvishlari, kundalik ish, o'qish, majburiyatlardan vaqt o'tirtirib bunday tadbirlarda ota-onalar va farzandlarning chin ko'ngildan ishtirok etishi, oila a'zolarini bir-biriga yaqinlashtirish va ko'ngilda insonparvarlik tuyg'ularining yanada ulg'ayishiga turtki beradi.

Maktab ichki dizayni va kutubxona

AQSh maktablari bilan O'zbekiston maktablarini solishtirmoqchi emasman. Lekin xorijiy ta'lim muassasalaridagi shart-sharoitlar har qanday o'qituvchini qiziqtirishi tabiiy. Amerika maktablari devorlarida faqat maktab va o'quvchilar ijodi bilan bog'liq qiziqarli materiallarni topishingiz mumkin. Masalan, maktabni eng yaxshi baholarga bitirgan, maktab faxriga aylangan o'quvchilar, maktab bayrog'i, maktab shiori, maktab logotipi, o'quvchilar yaratgan loyihalar shular jumlasidan.

Maktab kutubxonalari ham maktab hayotida muhim ahamiyatga ega. Kutubxona xodimlarining o'quvchilarni kitob o'qishga qiziqtirish uchun olib borayotgan sa'y-harakatlari meni lol qoldirdi. Masalan, kutubxona xodimlari o'quvchilarning kitoblarga diqqatini tortish uchun kitob javonlarining yuqorisiga eng ommabop va qiziqarli adabiyotlarni namoyish qilib qo'yishadi. Yoki kitoblarni ro'yxatdan o'tkazish stolidan katta jumboqli mashqlarni topishingiz mumkin. Kutubxonaga kelgan bola, albatta, bu jumboqli mashqlar oldidan bee'tibor o'tib ketolmaydi va 500—1000 bo'lakchalardan iborat jumboqni o'zi istaganicha davom ettirib, ulardan katta shakl chiqarishga harakat qiladi. Yana bir qiziq holat shuki, kutubxonada ota-onalar yoki boshqa xayriya jamg'armalari tomonidan tashkil qilingan maxsus kitoblarni javoni bo'lib, unda xayriya tariqasida maktabga sovg'a qilingan kitoblarni o'quvchilar tomonidan o'z shaxsiy kutubxonalari uchun olib ketilishi mumkin ekan.

O'sishdan to'xtamaylik!

Albatta, har bir millatda o'ziga xos yutuq va kamchiliklar bo'lgani kabi, har bir davlatning ta'lim tizimida ham yutuq va muammolar yetarlicha topiladi. Muhimi, tajriba almashish chog'ida o'sha yutuqlar omilini o'rganib, tajriba o'tirtirish, muammolarni tahlil qilib, xulosa chiqarishdir. Biz AQSh ta'lim tizimini o'zimiz uchun to'liq o'zlashtirib ololmaymiz. Sababi, AQSh davlat tarkibi va tuzilishi jihatidan bizning davlatimizdan har taraflama farq qiladi. Lekin xorijiy davlatlarning ta'lim sohasidagi samarali usullarni, yuqori natijaga eltuvchi ijobiy jihatlarni o'rgansak, o'sishdan to'xtab qolmaymiz.

Nasim SODIQOV,
Jizzax viloyatidagi "Umid" IDUMining
ingliz tili fani o'qituvchisi

“Mendirman o'shal...”

Televizorda Ozodbek Nazarbekov ijrosidagi “Mendirman...” qo'shig'i qo'yilyapti. Qo'shiqni tinglab va unga ishlangan klipni tomosha qilib o'tirarkanman, beixtiyor faxrdan, g'ururdan ko'zlarimdan yosh chiqib ketdi. Qo'shiqni men bilan birga berilib tinglab o'tirgan qizalog'im savol berib qoldi: “Onajon, Vatanni qanday sevish kerak? Sizni yaxshi ko'rganimday sevishim kerakmi?” O'ylanib qoldim. Hali murg'ak bolaga Vatanni sevishni qanday tushuntirish kerak? Qanday so'zlardan foydalansa, bu muhabbatning zalvorini bola qalbi his qiladi?

Vatanga muhabbatni ajdodlarimizdan o'rganishimiz kerak. Zero, ularning fidoyiligi, jonkuyarliligi tufayli Vatanimiz bugun ozod, bizlar erkin. Bobolarimizning jasorati, mardligiga minglab misollar keltirish mumkin. Ayniqsa, Sulton Jaloliddin Manguberdining jasorati, mardligi ko'p asrlar oshsa-da, bizlarga hamon o'rnatilgan, namuna bo'lib kelmoqda.

...Mo'r-malaxday yopirilgan dushman qarshisida kam sonli askarlari bilan noiloj qolgan Jaloliddin otini daryo tomon burdi. Dushmanga asir tushishni xohlamaganidan hech o'ylab o'tirmay baland tepalikdan suvga sakradi va shu yo'l bilan dushman ta'qibidan qutulib qoldi. Uni kamondan nishonga olishni mo'ljallagan askarlariga qarshilik qilgan Chingizxon uning ortidan ham havas, ham hasad bilan “O'g'ling bo'lsa, shunday bo'lsa...”, dedi askarlariga eshittirib. Daryodan eson-omon o'tib olgan Jaloliddin g'azab bilan dushmanga mushtini o'qtaldi: “Men hali qaytib kela-man”. Xuddi o'sha holatda — Jaloliddin Chingizxonga o'qtalغان mushtida ko'raman beqiyos vatanparvarlikni...

...Vatan uchun ko'ksim tog',
qalqondir sha'nim,
Uni desa shamolday
uchqur samanin,
Bor bo'lsam chamanimdir,
o'lsam kafanim,
Manguberdilik menga taqdiri azal...

Ohang ta'sirida ko'zlarimni yumaman, Jaloliddinning qilichini mahkam tutgan zabardast qo'llari, dushmanga so'nmas g'azab bilan tikilgan mag'rur

nigohlari namoyon bo'ladi. O'ljasiga har soniyada tashlanib qolishi mumkin bo'lgan arslondek chaqqon harakat bilan otiga sakrab minib, dushman tomon shamoldek yelib ketadi. Otining yollari bayroqdek hilpiraydi. Uning cho'g'i sachrab turgan nigohi, g'azab bilan qimtilgan lablari tanish, juda tanishdek tuyuladi menga. “Ko'rganman, bu shiddatkor nigoh, cho'g'i sochib turuvchi ko'zlar, qimtilgan lablarni ko'rganman”, pichirlayman o'z-o'zimga. Qayerda ko'rgandim? Esladim, men bunday yovqur nigohlarni qayerda ko'rganimni. Kasb taqozosi bilan 2001-yili yurtimizga Surxondaryo viloyatining Uzun va Sariosiyo tumanlari orqali yovuz niyatda suqulib kirmoqchi bo'lgan jangarilarga qarshi jang qilgan yigitlar bilan suhbatlashganman. Ba'zilarining o'zlarini bilan, ba'zilarining esa... ruhlari bilan.

O'sha mash'um voqea o'n yetti bahodirni, o'n yetti pahlavonni, Jaloliddin Manguberdining izdoshlari bo'lgan zamondoshlarimizni hayotdan olib ketdi.

...Baland tepalikda, xarsangtoshlar panasiga joylashib olib dushmanlar haqida ma'lumot uzatib turgan Elomon Otajonovni sezib qolgan jangarilar o'q yog'dirib, uni yaralashga muvaffaq bo'ldi. O'ziga yordamga shoshilgan safdoshlarini yo'ldan qaytargan Elomon so'nggi nafasigacha dushmanlar harakatidan ogohlantirib turdi. Ko'p qon yo'qotganidan ovozi borgan sari pasayib borar, lekin o'zini tetik tutishga harakat qilib, ishini bajarar edi. Elomonning eng so'nggi so'z do'stlariga qarata aytgani: “Onamdan xabar olib turinglar...” degani bo'ldi... Miqti gavdali



Alisher Kattaqulov vertolyotdan tushib, halok bo'lgan do'stlarining jasadini jang maydonidan olib chiqish haqida buyruq oldi. U endi safdoshi, ustoz, akasidek qadr doni Sayyor Sa'dinovning jasadini ko'targan ham ediki, buyruq bo'ldi: “Tezda vertolyotga qayt, dushman o'qiga nishon bo'lib qolishing mumkin”. O'qlar vizillab uchib turgan maydonda Alisher Sayyorning jasadini qoldirgisi kelmadi. Murdani bag'riga mahkam bosib vertolyotga qarab yurdi. Yiqilib, sudralib bo'lsa-da, vertolyotga yetib keldi... Ko'zlar kulib tursa-da, tubiga cho'kkan mung Ilyosbekning dardini oshkor qilib qo'yadi — uning bir oyo'g'i o'sha tog'larda qolib ketdi. Ko'plab yaradorlarning dardiga malham bo'lgan, hayotini saqlab qolgan harbiy feldsher Qahramon Madolimovning hayotini saqlab qolishning iloji bo'lmadi. O'sha jangda halok bo'ldi...

... Kim yurtidan yovni
quvsa mendirman o'shal,
Kim yurtiga sodiq bo'lsa
mendirman o'shal...

She'r muallifi Botir Ergashevning qalb kechinmalariga quloq tutaman. Kechinmalar ijod haqida, vatanparvarlik haqida...

— Yaralmishlar orasida aql sohibi bo'lmish odamzodning fe'l-atvori juda qiziq. Dengiz bo'yida yashasa, eng e'zozli ne'mat — suvni zaminning qay bir go'shalarida bir qultum suvga zor insonchalik qadrlamaydi. Agar chaman

ichida yashasa, cho'l-u biyobonlarda yantoqdan boshqa o'simlikni ko'rmagan insonlarchalik gullarning husn-u tarovatini, xush bo'yini his eta olmaydi.

Mamlakatimiz hurriyatga erishganiga 28 yil bo'ldi. Ko'pincha o'zimga savol beraman: Shuncha yildan buyon hurlikda, tinchlik-xotirjamlikda yashab, mana shu ikki ulug' ne'matning qadriga yetyapmanmi, deb... Ha, deyman-u, javobimdan ko'nglim to'lmaydi. Chunki ijodkor sifatida bu muqaddas yurt, bu bag'rikeng xalqni, uning tincho'soyishtaligini yetarlicha madh eta olganim yo'q. Demakki, hali to'la qadriga yetmayapman. Vatan haqidagi ko'plab she'rlarimiz, xususan, buyuk bobokalonimiz, ulug' sarkarda Jaloliddin Manguberdini haqidagi “Mendirman” she'ri va qo'shig'i ayni shu o'rinni savollarga javob berish asnosida yozilgan, desam, to'g'ri aytgan bo'lam.

Vatan ozodligini to'la anglamaslik, uning Yaratgan tomonidan ato etilgan beqiyos ne'mat ekanini jon-jonidan his etmaslik — qalban, ruhan ozod bo'lmagan odamlarga xosdir. Vatanni, uning qahramonlari nomini samimiy tarzda, chin dildan tarannum etish esa aynan vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantiradigan eng birinchi omil deb hisoblayman va doimo farzandlarim qalbida, ular timsolida yurtimiz yoshlari qalbida chin ma'nodagi fidoyilikni namoyon etishga harakat qilaman.

Asolat AHMADQULOVA

Mulohaza

So'z — libos

Dunyo mavjudotlarining hech qaysisi bir-biriga o'xshamaydi. Har birining libosi bor. Yer-u osmonni olasizmi, dov-daraxtlar deysizmi, tog-u toshlar, qir-u adirlar, hatto ko'zga ko'rinmaydigan ne'matlarda ham libos bor. Biz iste'mol qiladigan meva-chevalarga e'tibor bering. Olmaning po'stlog'i, limonning qaligina “terisi”, sabzining ham nozikkina “kiyimi” bor. Yovvoyi va uy hayvonlarini oling, parranda-darrandalarga boqing, hammasi nima bilandir qoplangan. Hattoki zamonaviy texnologiyalar ham turli bo'yoqlar berib liboslantiriladi.

Libos nima uchun kerak? Uning qanday xislati bor? Chuqurroq mulohaza qiladigan bo'lsak, buni anglash qiyin emas. Libosda to'rtta xislat mujassam: mavjudotlarning “ay-

bi”ni berkitadi; issiq-sovuqdan asraydi; chiroyli ko'rsatadi; ko'rgan odamning ko'zini quvontirib, qalbiga xotirjamlik baxsh etadi.

Inson libosi nima? Bu ha-

qida ko'p o'ylayman. “So'z — uning libosi” degan fikr miyamdanda o'tadi. Bu libos aybimizni berkitadi, issiq-sovuqdan asraydi, bizga obro' baxsh etadi, ko'ngil xotirjamligini undan topamiz.

So'z libosi nima? Uni ko'z bilan ko'rsa bo'ladimi? Yo'q, aslo! So'zni ko'zlarimiz ko'rmagani kabi uning libosini ham ilg'amaymiz. Uni eshitamiz, xolos. So'z libosida ham ajoyib xususiyatlar bor — suhbatdoshga muloyim ohangda so'z aytasangiz, tinglovchi qalbidan sizga mehr olib qaytadi.

Aksincha, kimgadir qo'pol, dag'al so'zlasangiz, uning qalbidan sizga tomon qahr oqib keladi. So'zdagi ko'rinmas rish-ta odamlarni bir-biriga do'st yoki dushman qiladi. Qisqasi, so'zning libosi talaffuz bilan jilolangan go'zal ohangdir.

Muloqot jarayonida ohang yetakchilik qiladi. Ohang esa tovushlardan tashkil topadi. Maqsud Shayxzoda “Shoir qalbi dunyoni tinglar” she'rida tovushlar ta'rifini shunday ifodalaydi:

Tovushlarning kichik, ulug'i,
Tovushlarning hidi-bo'yi bor.
Tovushlarning sovuq, ilig'i,
Tovushlarning rangi-ro'yi bor
Tovushlarning shirin-achchig'i,

Bordir hatto yumshoq-qattig'i
Shoir rassom bo'lsaydi agar,
Chizari edi shundan lavhalar.

Tovushlardan tashkil topgan so'zda shunchalar sehr-joziba bor. Qisqa qilib, “so'zning libosi ohang”, deb qo'ya qolsak ham bo'lardi. Unda ohangning ichki olami ochilmay qolardi. So'z libosining xislati deganda, ohangning turlicha ijrosini nazarda tutish kerak. Buni har kim o'zida sinab ko'rsin. Achchiq so'zdan qochib, shirin so'zni tanlang! Shunda libosingiz yanada ko'rkam bo'lib, barchani maftun etadi!

Norqul BEKMIRZAYEV,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi,
filologiya fanlari nomzodi,
dotsent



Qo'ng'iroq chalinguncha

Shahar, yo'llar... biroz odamlar.

Yerning manglayiga surtilgan
qorakuyaning ustida o'rmlab

yurgan temir "chumoli"lar g'ovuri tinmaydi. Qushlarning sayrog'i bilan avtolar shovqini qorishib, qirilgan plastinkadan chiqayotgan musiqaga o'xshash boshni og'rituvchi g'avg'oni paydo qiladi. Ayniqsa, maynalarning "diydiyo"si hammasidan o'tadi. Bu shaharda maynalar ko'p. Bir biolog do'stim aytgan gap qulog'imda qolib ketgan ekan: "O'zbekistonda maynalar tip sifatida chumchuqlarni siqib chiqardi".

Iymonli qushlar (Badia)

Qushlarda ham manfaat bor ekan, qarang. Bu odam deganlari esa bor gunohini shu "tirikchilik" degan so'zga yuklashga urinaveradi. Qushlar ham bir-birini qaqshatayotganda "Ha, endi tirikchilik-da", deb o'zini oqlarmikan?! Qushlar ham aldamikan? Donishmand Sharqda bejiz qush tilidan rivoyatlar paydo bo'lmagan. "Mantiq ut-tayr"dan tortib "Zarbulmasal"ga cha shundan so'zlaydilar-ku. Qushlar ham sevarmikan? Oqqushlar jufti o'lsa, o'zini halok etishi haqida eshitgandim.

Shahar ko'chalaridan birida maynani mashina bosib ketdi. Ko'rib qoldim. Bir o'ram par shina va asfalt orasida yo'q bo'lib ketdi. Dod! Bo'g'zimga nimadir qadaldi. Ko'zim xonumoni majaqlanib yer bilan bir bo'lgan, boshi-yu oyog'i yanchilib ketgan sherigining atrofi-da aylanib uchayotgan qushda edi. U tinimsiz o'tayotgan mashinalarning izidan quvlar, asfaltda yotgan turdoshining patlaridan changallab

tortishga urinardi... Tinmay chirqillar, boshqacha chirqillardi. Qarg'ishga o'xshardi bu tovush. Biri asfaltning yuziga yopishib, boshqasi uning ustida chirqirayotgan ikki qush ko'z oldimga qotib qoldi. Miyamda bag'ridan og'riqlar sizib yotgan bechora zaminning har tomonida yuz berayotgan fojialar aylana boshladi. Qushlarning ham dini bormikan? Axir ularni ham Olloh yaratgan. Ular ham yaratguvchi zotga turlicha e'tiqod qilgani uchun bir-birini qirg'in qilarmikan? Ular ham boshqa turdoshlari bilan yer talasharmikan? Yo'g'-a, yer degani odamzoddan ortmaydi. Qushlar osmon talashsa kerak. Biroq osmonni egallagan qush uni ortmoqlab ketarmidi? Hech qaysi qush osmonda abadiy qolmaydi. Qanotlari oltindan bo'lsa ham osmonda mangu qololmaydi.

Ko'z oldimga hanuz o'sha qush. Uning ko'zlari qanaqa edi? Mashina uning ko'zlarini ham ezg'ilab yuborgandi, chamamda. Uning

sherigi odamlarni nima deb qar-g'adi ekan? Qanoting sinsin, deb-mi... Axir qanoti...

Agar odamda qanot bo'lganda, zaminni allaqachon tizginidan chiqarib yuborardi-yov. Yerdan yurib shuncha xunrezliklarni "ijod etgan" osmonni ne ko'yga solgan bo'lardi? Osmonni... Yaxshiyam osmon bor, qarasang, yashaging keladi.

Turkiylarning ulug' adibi Chingiz Aytmatov "O'tar qushning nolasi" degan rivoyatida o'zini bu dunyodan qanoti kuyib uchib o'tayotgan qushga mengzagandi. Ha, kim bu dunyoga ko'proq qo'nsa, o'sha ko'proq jabr tortadi. Dunyo odamga xo'rak qo'yib, uni tuzoqqa tushirishga qasd qilgan. Ba'zan bu xo'rak odamning o'zi bo'ladi. U o'z-o'zini yeb bitirishi uchun dunyo unga tuzoq qo'yadi. Odam o'zini yeb tugatay deganda, nimadir to-mog'iga tiqladi. Uni yutolmaydi. Qiltanoqday bo'g'zida qolib ketadi. Iymoni bo'g'ziga qadaladi. Iymonni yutish oson emas. Shuning uchun kimdir uni tuflab tashlaydi. Yerdan yotgan iymonni nafs yeb ketadi. Aytgancha, qushlarning iymoni bormikan? Axir nafi bor-ku! Bir qanotdoshining ustida chirqillab turgan qush ko'z oldimga keladi: qushlar iymonli bo'larkan! Mening bo'g'zimdagi nima? O'qqa uchgan suriyalik, odamlilik sha'ni toptalayotgan uyg'ur, ochlikdan eti suyaklariga botib ketgan badaviy, masjidida, joynamozi ustida qoni to'kilgan musulmon haqida o'ylasam, bo'g'zimga nimadir qadalaveradi... Agar qush bo'lolsam, o'shalar uchun chirqillab o'tardim. Men qush bo'lolmayman.

Suhrob ZIYO

(Mustaqilligimizning 28 yilligiga bag'ishlanadi)

Har go'shang obod bo'lsin

Toychoqlar unib-o'sib, bir kun tulpor ot bo'lsin,
Gullab, yashnab maskanlar,

har go'shang obod bo'lsin,

Jamolingdan har ko'ngil

xushnud bo'lsin, shod bo'lsin.

Istiqlol, deb porlagan hur quyoshing muborak,
Yurtim, yigirma sakkiz qutlug' yoshing muborak.

O'tdi qalbin tubida tuyib dard-u armonlar,
Ko'zlarida yosh bilan Qodiriylar, Cho'lponlar,
Bugun egningda milliy atlas-u zar choponlar.
Beminnat pishgan noning, palov oshing muborak,
Yurtim, yigirma sakkiz qutlug' yoshing muborak.

Bugun vodiylar uzra esmoqda xush bir sabo,
Vohalaring gulshan-u, osmonlaring musaffo,
Kalta, Kalon minorlar boshida nurli samo,
Farg'ona-yu Samarqand, azim Shoshing muborak,
Yurtim, yigirma sakkiz qutlug' yoshing muborak.

Taraqqiyot yo'lida azim pirlar qo'llasin,
Nur zaminga Ollohim barokatlar yo'llasin,
Istiqlol, deb nur sochgan hur quyoshing so'nmasin.
Erkin, obod Vatanda keksa, yoshing muborak,
Yurtim, yigirma sakkiz qutlug' yoshing muborak.

Jonajon O'zbekistonim, mangu bo'l omon!

Ta'rifing tillarda, dillarda doston,
Eng go'zal, eng buyuk yurt O'zbekiston,
Senga fido bo'lsin ko'ksimdagi jon,
Jonajon O'zbekiston, mangu bo'l omon!

Bir lahza ayrilsam, bag'rim bo'lar qon,
Tutarman bayrog'ing bosh uzra osmon,
Sen buyuk Temurga bo'lgansan makon,
Jonajon O'zbekiston, mangu bo'l omon!

Bir yog'i bog', bo'ston, chaman, gulzorsan,
Bir yog'i ko'klarga tutashgan qorsan,
Ollohnin nazari tushgan diyorsan,
Jonajon O'zbekiston, mangu bo'l omon!

Navoiy bayti bor yaproqlarinda,
Boburlar ohi bor titroqlarinda,
Buxoriylar yotar tuproqlarinda,
Jonajon O'zbekiston, mangu bo'l omon!

Mevangdan keladi jannatlar ta'mi,
Musaffo havolar ko'ngil malhami,
Hech qachon o'chmasin istiqlol shami,
Jonajon O'zbekiston, mangu bo'l omon!

Bag'ringda yashnaymiz bazmlar qilib,
Ta'rifing kuylaymiz nazmlar qilib,
Yashaymiz toabad ta'zimlar qilib,
Jonajon O'zbekiston, mangu bo'l omon!

Xurshid KARIM,
Beshariq tumanidagi
15-maktab o'qituvchisi

Gujum

Bekorga nigohlaringiz tentirayapti. Bu yerlar dunyodan uzilgan yoki bu yerlardan dunyo... Ming bora tikilmang, cho'ponlarning chaylasidan boshqa inson yashaydigan joyni topolmaysiz.

Bir-birig yelkasi tegar-tegmay chordona qurib o'tirgan pahlavon adirlar qishloqni, olisdagi shaharlarni to'sib turibdi. Balki yolg'on, nafrat, kibr, ikkiyuzlamachilik, sotqinlik...nomardliklarni hamdir. Lekin osmonni emas. Bu yerning osmoni boshqacha, quyoshi, oyi. Yulduzlari ko'-o'p...

Hu-u anavi gujumni ko'ryapsizmi, Qurusoynin bo'yidagi. Shamollar chalayotgan "Cho'li iroq"ning ohangiga mos chayqalib turibdi. Agar ishonolganingizda edi: "Keldingmi, jo'ra?!" deb menga qo'l silkiyapti degan bo'lardim. "Ertaga kelaman!" deb ketganimga mana bir yildan oshibdi. U mening eng qadrdon do'stim. Otamning ham, bobomning ham...

Dashtning erkato'i, bug'doychi qizlarning qo'nalg'asi shu. Ularning ro'mollar iskanjasi-dan forig' bo'lgan gulday yuzlarini bir ko'rish-

ga mushtok ne-ne cho'pon yigitlarni dog'da qoldirgan ham shu gujum. Alami kelgan yigitlar uning shoxini sindirib kaltak qiladi. Lekin hijron azob berganda gujumning soyasida shu kaltakni chertib bo'zlab-bo'zlab qo'shiq aytadi...

Gujum dashtga kelganimda zeriktimaydi. U yoqdan, bu yoqdan suhbatlashib o'tiramiz. Men qishloqdagi yangiliklarni aytaman. U dashtning muvozanatli hayotidan hikoya qiladi. Qurusoynin bahordagi sellarni aytmaganda umuman suv oqmaydi. Lekin bizning gujum saratonning jazirasida ham pinagini buzmay turaveradi. Ildizlari yerning yuragigacha yetgan bo'lsa kerag-ov. Yoki irodasi menikiday bo'sh emas. Men unga biror narsa beroldimmi, bilmayman, lekin undan menga ko'p narsa yuqdi. Dashtlarga muhabbat, sabr...

Men yaxshi do'st bo'lolmadim. Dashtni, uni tashlab ketdim. Meni poyoni yo'q, aldoqchi yo'llar yo'ldan urdi. Nachora, faqat ko'ngilga izn berib yashab bo'lmas ekan. Ketayotganimda ma'yus chayqalib tepalikdan oshgunimcha ortimdan tikilib qolgan edi. Bugun ham...

Ha, quyosh botyapti, ketamiz. Faqat biroz shoshmang. U bilan xayrlashib qolay: "Jo'-o'-ra-a, ertaga kelama-a-an!"

Humoyun QUVONDIQOV

INFEKSIYALARGA QARSHI YASHIRIN HIMOYACHI ANIQLANDI

Xalqaro olimlar jamoasi inson organizmi immuniteti antitela ishlab chiqar-guniga qadar virusli infeksiyalarga qarshi kurasha boshlashini aniqladi. Bu haqdagi maqola "Cell Death & Differentiation" jurnalida chop etildi.



Ma'lumki, inson va boshqa ko'plab jonli mavjudotlar virus va bakteriyali infeksiyalardan moslashuvchan immunitet yordamida himoyalanaadi. Tanamizda mikroba viruslarni o'ziga yutuvchi bir necha o'nlab hujayralar mavjud. Virus hujayraga tushadi va nobud bo'ladi. Atrofida esa katta miqdorda interferonlar paydo bo'lib, sog'lom hujayralarda viruslar ko'payishiga to'sqinlik qiladi. Shu bois biologlar interferonlarni allaqachon organizmning "birinchi mudofaa chiziqlari" deb bilardi. Ammo infeksiyalarning erta rivojlanish bosqichini kuzatgan olimlar aslida unday emasligiga guvoh bo'ldi. Aksincha, interferonlarning paydo bo'lishi bilan zararlangan va sog'lom hujayralar "o'z-o'zini o'ldira boshlaydi".

Genlar janjirini o'rganish jarayonida olimlar DNK qismlarining yana bir jamlanmasini aniqladi va ularni CIREN deb nomladi. U organizmda faollashgan vaqtda turli kasalliklarga sabab bo'lishi mumkin. Buning oldini olish uchun esa interferon molekularini me'yoriylashtiruvchi nekrostatin moddasidan foydalanish mumkin. Ushbu modda infeksiyalarga qarshi samarali kurashib, organizmni turli kasalliklardan himoyalaydi.



OYDA QANCHA TEXNIK CHIQINDI BOR?

Olimlar Oyni tadqiq qilish jarayonida so'nggi bir necha o'nyillikda uning sathida ko'plab chiqindi to'planib qolgani, ular orasida o'ziyurar apparatlar uyumi ham borligini ma'lum qildi. Bu boradagi savollarga "FunScience" ilmiy kanalida oydinlik kiritildi.

Tadqiqotchilar Oydagi barcha texnik chiqitlarni yig'sa, taxminan 181 ming kilogramm tosh bosishi mumkinligini aytmoqda. U yerda bir necha yirik matohlar, xususan, beshta Oy avtomobili — roverlar qoldirib ketilgani inobatga olinsa, bu raqam haqiqatga yaqin bo'lib chiqadi, dedi NASA bosh solnomachisi Uilyam Barri.

Oydagi asosiy chiqindilar 1969—1972-yillarda "Apolon" dasturi doirasida ushbu tabiiy yo'ldoshga qadam qo'ygan astronavtlar tomonidan qoldirib ketilgan. Chiqindilar orasida AQSh, Yevropa Ittifoqi davlatlari, Rossiya, Yaponiya, Hindiston va boshqa mamlakatlarning qachonlardir Oyga parvoz qilgan uchuvchisiz apparatlar qoldiqlarini ham uchratish mumkin. Shuningdek, Oyda orbital apparatlar — yo'ldosh atrofida uchib, tadqiqot olib borgan va yakunda ishdan chiqib, Oy sirtiga qulagan qurilmalar g'arami mavjud.

Hozir NASA tashkiloti Oyda qoldirib ketilgan apparatlarga chiqindi deb emas, uzoq muddatli tajriba obyekti sifatida qarash lozimligini ta'kidlamokda. Chunki olimlar keyinchalik bu qoldiqlarni tekshirish orqali vakuum va kosmik nurlanishlarning ushbu materiallarga ta'sirini o'rganishi mumkin bo'ladi. Yirik kompaniya rahbarlari kelgusida Oyda doimiy baza barpo etib, u yerga sayyohlar qatnay boshlagach, "Apolon" kemalari qo'ngan joylarni muzeyga aylantirishni rejalashtirgan.



Irada TOSHMATOVA tayyorladi.

reklama • e'lon • reklama • e'lon • reklama • e'lon

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzurida tashkil etilgan Kasbiy qayta tayyorlash kursiga pedagogik va nopedagogik oliy ma'lumotga ega bo'lgan talabgorlarni barcha fan yo'nalishlarida o'qishga taklif qilamiz.

Kursda o'qish istagini bildirgan talabgorlar tomonidan quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- Diplom va ilovasi (asl nusxasi).
- Pasport nusxasi.
- Mehnat daftarchasidan nusxa.
- Ish joyidan ma'lumotnoma.
- 3x4 o'lchamli 6 dona fotosurat.
- Talabnoma (ish joyidan).

Ma'lumot uchun: (90) 931-60-73
(97) 700-28-73



Turakulov Jaxongir Ulugbekovichning 02.00.01 — Noorganik kimyo ixtisosligi bo'yicha "Kalsiy atsetatining ayrim amiddi, nikotin va benzoy kislotali koordinatsion birikmalarining sintezi, tuzilishi va qo'llanilishi" mavzusidagi (kimyo fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.K.01.03 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 18-sentabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy, O'zMUning Kimyo fakulteti binosi.

Tel/faks: (71) 227-17-24, 246-53-21, 246-02-24; e-mail: chem0102@mail.ru

Adambayev Zufar Ibragimovichning 14.00.13 — Nevrologiya ixtisosligi bo'yicha "Umurtqa kanalining ikkilamchi stenozida nevrologik buzilishlar (klinikasi, diagnostikasi va davosi)" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent vrachlar malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017. Tib.31.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 6-sentabr kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100007, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Parkent ko'chasi, 51-uy. Tel/faks: (71) 268-17-44; e-mail: info@tipme.uz

Temirov Muxammadali Xamidovichning 08.00.07 — Moliya, pul muomalasi va kredit ixtisosligi bo'yicha "O'zbekiston Respublikasida davlat moliya tizimini isloh qilishning istiqbolli yo'nalishlari" mavzusidagi (iqtisodiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti va O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.I.16.03 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 12-sentabr kuni soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100000, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy.

Tel/faks: (71) 239-27-15, 239-27-09; e-mail: tdiu@tdiu.uz

Obod yurtga ozoda maskanlar yarashadi

Yurtimizning har bir go'shasida obodonlashtirish ishlariga e'tibor qaratilmoqda. "Obod mahalla" dasturi asosida tuman markazlari va chekka hududlarda har bir maskanning chiroyli ko'rinish kasb etishi, toza-ozoda bo'lishi, zamonaviy qiyofaga ega bo'lishi muhim vazifalardan biri bo'lmoqda.

Bu masalaga mamlakatimizning turli hududlaridan Favqulodda vaziyatlar vazirligining malakali xodimlari, hokimlik, fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish organlari, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish sektor rahbarlari va qator tashkilotlar vakillari jalb qilindi.

Yashnobod tumanidagi ayrim muam-molar, jumladan, bolalar o'yingohlari qurilishi, ko'chalarning ta'mirlanishi, maishiy xizmat ko'rsatish obyektlarining obod etilishi bilan bog'liq kabi o'nlab masalalarga yechim topildi. Tumanidagi Tuzel, Navro'zobod, Tong mahallalaridagi kam ta'minlangan va nogiron fuqarolarga yordam ko'rsatildi. Ko'p qavatli uylarda yashovchi aholi xonadonlarida aniqlangan qator kamchiliklar mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda joyida bartaraf qilinmoqda.

Ulug'bek AHMADJONOV,
Yashnobod tumani YXB
katta inspektori, katta serjant



«ELXOLDING»

“ELXOLDING” ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi jamoasi

“Jonajon O‘zbekistonim, mangu bo‘l omon!”

shiori bilan nishonlanayotgan barchamiz
uchun eng ulug‘, eng qutlug‘ bayram

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUSTAQILLIGINING 28 YILLIK

shodiyonasi bilan bag‘rikeng, saxovatpesha
qalb egalari bo‘lgan Siz aziz yurtdoshlarimizni muborakbod etadi!

“ELXOLDING” jamoasi jonajon Vatanimizning yanada
gullab-yashnashi, buyuk kelajak sari qo‘yilayotgan sobit qadamlarida
Sizdek zamondosh, yurtdoshlarimiz bilan birga odimlayotganidan
baxtiyordir. Buyuk O‘zbekiston xalqiga barqaror tinchlik-xotirjamlik,
farovonlik, sog‘lik-salamatlik, qut-baraka tilaymiz!

**AYYOMINGIZ MUBORAK BO‘LSIN,
AZIZ YURTDOSHLAR!**



Ma'rifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O‘zbekiston Xalq ta’limi vazirligi,
O‘zbekiston Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi,
O‘zbekiston Ta’lim, fan va madaniyat xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Indeks: 149, 150. G-829. Tiraji 11792.
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan,
qog‘oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

qabulxona — (71) 233-50-55;
kotihiyat — (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo‘limi —
(71) 233-42-92 (faks), (71) 236-54-17.



“Ma’rifat” dan
materiallarni ko‘chirib
bosish tahririyat
ruxsati bilan amalga
oshirish shart.

Tahririyatga kelgan
qo‘lyozmalar taqiriz
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko‘chasi, 32-uy.
Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.
Navbatchi muharrir: Iroda Toshmatova.
Navbatchi: Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Korxona manzili: Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

O‘za yakuni — 02.00 Topshirildi — 03.20

12 456